



KAMOLIDDIN BEHZOD STIPENDIYASI SOHIBLARIGA GUVOHNOMALAR TOPSHIRILDI

O'zbekiston Badiiy akademiyasida Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasi g'oliblariga guvohnomalar topshirish marosimi bo'lib o'tdi.



Mamlakatimizda iste'dodli yoshlar, iqtidorli talabalarini qo'llab-quvvatlash, ular erishayotgan yutuqlarni rag'batlantirish va munosib taqdirlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun alohida davlat stipendiyalari tayinlanayapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida oliy ta'lim muassasalarida tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishida ta'lim olayotgan iqtidorli va ijodkor talabalarni moddiy va ma'naviy munosib qo'llab-quvvatlash maqsadida Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini ta'sis etish vazifasi belgilangan edi.

Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasi — respublika davlat oliy ta'lim muassasalarining dastgohli rangtasvir, rangtasvir, grafika va miniatyura, haykaltaroshlik, amaliy san'at,

dizayn, san'atshunoslik va muzeyshunoslik yo'nalishlarining oxirgi ikki kursida ta'lim olayotgan bakalavriat bosqichi talabalariga tayinlanadi.

Stipendiya tayinlashda talabgorning oliy ta'lim muassasasidagi tahsil davrida viloyat, respublika va xalqaro miqyosdagi shaxsiy ko'rgazmasini tashkil etganligi, soha bo'yicha xalqaro va respublika darajasidagi ko'rgazma, biyennale, festival, simpozium, tanlov va boshqa nufuzli tadbirlardagi ishtiroki va natijalarga erishganligi, o'quv jarayonida mutaxassislik fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirganligi, o'zbek milliy san'atini targ'ib qilishga qo'shgan hisssasi inobatga olinadi.

Joriy 2021-yilda ilk bor O'zbekiston Badiiy akademiyasi tomonidan oliy ta'lim muassasalarining iqtidorli va ijodkor talabalar uchun Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasi tanlovi o'tkazildi.

O'zbekiston Badiiy akademiyasi tomonidan tuzilgan

Ekspert guruhining qaroriga asosan, 7 nafar iqtidorli ijodkor talaba tegishli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini qo'lga kiritdi.

Tantanali marosimda O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi, O'zbekiston xalq rassomi Akmal Nuriddinov ishtirok etdi va talabalarga ushbu davlat stipendiyasi guvohnomasini topshirdi.

— Buyuk musavvir Kamoliddin Behzod stipendiyasiga loyiq ko'rilganidan g'oyat mamnunman, — dedi Buxoro davlat universiteti talabasi Oysha Ibrohimova. — Mening nomzodimni qo'llagan adolatlil hay'at a'zolariga tashakkurlar aytaman. Qalamim mo'jizasi bo'lgan musavvirlik dunyosida ulkan yutuqlar tomon intilaveraman. Chunki meni qo'llaguvchi oilam, jamoam, ustozlarim, o'quv dargohim va sevimli yurtim bor.

Nazokat USMONOVA,
O'ZA muxbiri

24 O'ZBEKISTON PREZIDENTI OKTABR 2021-YIL SAYLOVI

SIYOSIY PARTIYALARNING PREZIDENT SAYLOVIDA ISHTIROK ETISHIGA RASMAN RUXSAT BERILDI

Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishni Komissiya Raisi Z. Nizomxo'jayev olib bordi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalarining shaxsiy tarkibini tasdiqlash, siyosiy partiyalarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti say-

lovida ishtirok etishiga ijozat berish va ommaviy axborot vositalari vakillarini akkreditatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqildi.

Davomi 4-sahifada.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 30 YILLIGIGA

MEHRIBONLIK UYLARI — ISLOHOTLAR OSTONASIDA

O'tgan yillar davomida Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy yetimlikning oldini olish borasida qator ishlar olib borilishiga qaramasdan, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining jamiyatga moslashuvi bilan bog'liq muayyan muammolar saqlanib qolmoqda. Mavjud muammolarni o'rganish, tahlil qilish hamda amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda Yoshlar tashkilotining o'rnini qanday? Rivojlangan Yevropa davlatlarida bu muammo qanday hal qilinmoqda?



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida tarbiya muassasalarini tamomlagan yetim va ota-onasining qaramog'idan mahrum yoshlarning

ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlash va bandligini ta'minlash, qarovsiz va yolg'iz keksalarga yordam ko'rsatish, nogiron va imkoniyati cheklangan fuqarolarga ko'maklashish — agentlikning asosiy vazifalaridan biri etib belgilab berildi.

Davomi 3-sahifada.



O'shanda beshinchi sinf o'quvchisi edim. Maktabimiz yetakchisi Xurshida opa qandaydir sardorlar saylovi bo'lishi haqida e'lon berdilar. Darsdan so'ng hamma sinfdoshlarimiz bilan birga faollar zaliga bordik. Yetakchimiz sardorlikka nomzodlarni birin-ketin ayta boshladi. Buni qarangki, ana shu 14 nafar yoshlarning ichida kamina ham "Mehr-saxovat" yo'nalishi sardorligiga nomzod bo'lgan ekan. Shu kun omadli keldi. Men maktabda sardor bo'ldim.

MEN SARDORMAN

Ishonasizmi, uya "Butun maktab bo'yicha sardor bo'ldim", deb yugurib borganman. Ana shu quvonchli onlardan beri sardorlikka sadoqatli bo'lib qoldim. Shu o'quv yilida "Kamalak bilimdonlari" tanlovi o'tkaziladigan bo'ldi. Bizning jamoamiz esa, tanlovning tuman bosqichida g'olib bo'ldi. Viloyat bosqichida ham faol ishtirok etdik. Men uchun asosiy, shu tanlovdan so'ng viloyat sardori degan e'tirofga loyiq ko'rildim. Mana shunga ham olti yil bo'libdi. Vaqt – oqar daryo, deb shunga aytishar ekan-da. Shu kungacha qanday natijalarga erishgan bo'lsam, bularning zamirida ota-onamning, "Kamalak" bolalar tashkilotining, ustozlarimning o'rni beqiyos. Sardorlik – menga ham ma'naviy, ham ijodiy, ham intellektual salohiyat bera oldi. Jamoada qanday yetakchilik qilishni, muomala madaniyatini, notiqlikni, erkin va to'g'ri fikr bildira olishni, mantiqiylikni, tezkorlikni, faollikni, tashabbuskorlikni o'rgatdi. Ular natijasida mana bugun universitetda ham o'z guruhimning sardoriman. Xudo xohlasa, kelajakda bosqichma-bosqich o'z kasbidam ham yetakchi bo'lishga harakat qilaman.

Shu yillar mobaynida "Kamalak yulduzlari", "Mening ijod mahsulim", "Men muallifman", "Men eshitgan ertaklar" kabi ijodiy tanlovlarning Respublika bosqichida g'olib va sovrindor bo'ldim. "Yil sardori" tanlovida esa, ikki marta ishtirok etdim. 2017-yildagi birinchi ishtirokimda uchinchi o'rinni, joriy yil esa, Respublika bosqichida birinchi o'rinni qo'lga kiritdim. 2016-yil ilk bora sardorlar o'rtasida "Yil sardori" tanlovi o'tkazildi. Biz "Kamalak" bilimdonlari" tanloviga qatnashib, ikkisi bir kungacha to'g'ri kelib qolgan uchun tanlovda ishtirok eta olmadim. 2017-yil tanlov ikkinchi bora o'tkazildi. Astoydil kirishdik. Tuman va viloyat bosqichida g'olib bo'ldik. Respublika bosqichida qatnashdik. Hech esimdan chiqmaydi, birinchi shartda 9 ball olgandik. 10 ball olganlar bo'lmagandi. Ikkinchi shartda esa, bizga 10 ball qo'yishgandi. Iste'dod shartida hammaga bir boshidan to'qqiz qo'yilib kelinardi. Men sahnaga chiqqanimda hakamlar she'r aytasizmi, deyishdi. Ha dedim. Yohimizga keling, savol-javob qilamiz dedilar. Ana ko'rsangiz endi, To'ra Sulaymondan boshlab, adabiy janrlargacha savollar berildi. Bizning

iste'dod shartimiz savol-javobdan ham qiyin bo'ldi. Bir payt qarasam, bitta hakam to'qqiz ball qo'yyapti ekan. E'tiroz bildirsam yana savol berib, balimni tushirib yuborishadi, deb o'yladim-u xayolimga bir fikr keldi. Hakamlarga qarata, istasangiz 5 ta xohlagan yo'nalish bo'yicha so'z bering, bir-biriga mazmunan bog'lab she'r yozib beraman dedim. Bu gapimga qiziqib qolgan hakamlar qancha vaqt berishlarini so'rashti. O'n besh daqiqa deyman deb, besh daqiqa deb yubordim. Hayajon bosdimi yoki boshqa bo'ldimi bilmayman-u, ammo juda qo'rqdim. Endi vaqtni ortga qaytarib bo'lmaydi. Otasidan hayitlik kutayotgan boladay hakamlarga usunroq so'z berishlari uchun umidvor tiklardim. Buni qarang, ular meni siylashdi. Juda bir-biriga "yaqin" so'zlarni berishdi.

To'rt (raqam);
Hayvon;
Telefon;
Tadbir;
Shapaloq.

Bu so'zlarni varaqqa yozib oldim-u qo'lim titrab ketdi. Endi nima qilaman, yozolmasam nima bo'ladi, degan o'y xayolimni qamrab oldi. Sahnadan joy qilib berishdi, qolgan hudud shartni bajarib bo'lgunga qa-

dar men ham yozib bo'lishim kerak edi. Sahnaga shovqin, kimdir sahna ko'rinish qo'yar edi. Belgilangan muddatda bitta bolalarcha she'r paydo bo'ldi. Sahnaga chiqdim. Butun kuzatuvchilar menga qarar, bir narsalarni pichirlashar, raqiblar ham sinchkov termulishar edi. She'rni aytdim. O'sha paytda yozganimning o'zi hozir esimda yo'q, ammo mazmuni yodimda bor. O'shanda "Bir kuni maktabimda "tadbir" bo'libdi. Tadbirda "to'rtta" "hayvon" sahna ko'rinish qo'yib, bir-birlari bilan "telefon" suhbatlashar ekan. Ora-orada boshqa hayvonlar

gandilar. Joriy yil ham Nargiza opa boshchiligidan tanlovga tayyorlandik. "Yil sardori" nomini o'zim uchun "Yil jamoasi" deb qabul qildim. Axir qancha insonlar mehnat qilishdi.

Imtiyozga kelsak, ochig'i, yoshlar ittifoqining imtiyoz bilan o'qishga kiraman, deb sira o'ylamagan edim. Sababi men sardorlikka imtiyoz yoki qandaydir mukofot uchun kelmaganman. Niya-tim, shunchaki o'zimni o'zim uchun kashf qilish edi. Joriy yilgi imtiyoz uchun hujjatlar qabuli yaqinlashar ekan, bir qatnashib, omadimni sinab ko'rishni niyat qildim. Yaxshi niyat – yarim mol, deganlari yolg'on ekan. Yaxshi niyat butun mol ekan. Mana bugun niyatlarimiz natijasida talaba bo'lib, o'qib, o'rganib yurib-miz. Esimda, uйда edim, qararasam suv qolmabdi. Suv aravani oldim-u, ko'chamizning boshiga chiqib ketdim. Ayam hovlida o't yulayotgan edi. Bir payt qarasam, suv tomonga ayam kelyapti. Qo'llarida telefoni bor edi. Nargiza opang bilan gaplash, deb qoldilar. Menimcha ertaga qaysidir hududga borishimizni aytadilar, Sardobaga borsak kerak, deb o'yladim. Telefonni olsam, Nargiza opa xursand ovoza 914-sonli qaror asosida imtihonsiz talaba bo'lganligim haqida aytib qoldilar. Shu qadar quvondimki, shu qadar sevindimki, haligacha bu quvonch davom etyapti va davom etadi ham. Ayamga ham aytmabdi Nargiza opa. Men ayamga aytdim. Ayam dadamga, dadam qo'shnilariga... Shu tariqa yaxshi xabar ovoza bo'lib ketdi. Bu natijalarga erishishim yo'lida asosiy sababchilardan biri bo'lgan ustozim, Nargiza opamga ming rahmat aytaman. Aytishim mumkinki, men sardor bo'lib adashmadim, men sardor bo'lib g'alaba qozondim. Bu yog'iga ham sardor bo'lib qolaman.

Yorqinjon HAYITBOYEV,
Gulliston davlat universiteti talabasi

BAYRAMGA MUNOSIB SOVG'A!

Farzandining natijalaridan mamnun ota-onalar chehrasi, murabbiylarning shaxdam qadamlari, g'olib sportchilarning ko'ksini bezagan medallar bugun Beruniy ahlining yana bir quvonchiga sabab bo'ldi.


Joriy yil 3-8-avgust kunlari Qirg'iziston Respublikasi Issiqko'l shahrida o'smirlar va yoshlar o'rtasida "Aralash jang san'ati" bo'yicha o'tkazilgan Jahon chempionatida beruniylik umidli sportchilardan Dilnoza Aminova, Oltinoy Olloyorova, Abror Rajabov, Olloyor Ametbayev, Alibek Polvonov, Dostonbek Hamrayev, Sardor Pardabayev, Jo'rabek Xudoyberganovlar ishtirok etib, 4 ta oltin,

1 ta kumush, 3 ta bronza medalini qo'lga kiritishdi. Tuman hokimi Atabek Saparbayev hamda faxriylar boshchiligidan sportchilar munosib tarz-

da, kamay-surnay sardolari ostida kutib olindi. Majlislar zalida esa ota-onalar yurtimizda sportga berilayotgan e'tibor sabab farzandlarining



yuqori natijalarga erishayotganidan mamnunligi, bu esa, o'z navbatida, farzandlarining vatani-ga sodiq, maqsad sari intiluvchan qilib tarbiya topayotgani, bunda ustoz-murabbiylarning o'rni alohida ekanligini ta'kidlab, o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi. G'oliblar tuman hokimligining maxsus sovg'alari — velosipedlar bilan taqdirlandi, murabbiylar Otajon Davlatyorov, Hamdam Sherimbetov hamda Jayhun Ametovlar esa televizor bilan rag'batlantirildi. — Bu medallar, —



deydi tuman hokimi Atabek Saparbayev yuksak ishonch bilan o'z nutqida, — kelajakda, albatta, olimpiya o'yinlaridagi g'oliblikning ibtidosi, "Jahon chempioni" degan sharaffi nomning davomi bo'ladi!"

Vatanimiz mustaqilligining 30 yillik bayramiga beruniylik sportchilarning sovg'asi barchamizga muborak bo'lsin!

Komila HAMROYEVA,
Aynura URAZOVA



Sharofiddin XONIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi bo'lim boshlig'i

Mehribonlik uylari bitiruvchilarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi yanada takomillashtirilib, 18 yoshga to'gan uy-joyga muhtoj yetim bolalarga yangi qurilgan uy-joylar bepul ajratiladi.

Buning uchun, 757 nafar bolaga uy-joy sotib olishga joriy yilda byudjetdan 120 milliard so'm yo'naltiriladi (2011-2020-yillarda Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchasini tugatgan va uy-joyga muhtoj 1188 nafar bitiruvchidan 610 nafariga uy-joy berilgan. 2021-yilgi bitiruvchilarning uy-joyga muhtoj 139 nafarini hisobga olganda, jami 710 nafar Mehribonlik uylari bitiruvchilari turar joyga muhtoj).

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

MEHRIBONLIK UYLARI - ISLOHOTLAR OSTONASIDA

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni munosib ta'lim olishi, kasb-hunarga yo'naltirish uchun shart-sharoitlar yaratish va jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta'minlash maqsadida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan doimiy ravishda tarbiyalanuvchilar o'rtasida so'rovnomalar va suhbatlar o'tkazish orqali mavjud muammolar, xorijiy davlatlar tajribalari o'rganilib, tahilllar asosida amaldagi qonun hujjatlariga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqilib qonun chiqaruvchi organlariga taqdim etib kelinmoqda. Bundan tashqari oliy ta'lim muassasalarida to'lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan chin yetim, ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan va Mehribonlik uyida tarbiyalangan talabalar uchun "Yoshlar ta'lim granti" loyihasi e'lon qilib borilmoqda.

Loyiha doirasida o'tgan 4 yil davomida oliy ta'lim muassasalarida to'lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan chin yetim, nogiron, ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan va "Mehribonlik uyida" tarbiyalangan, boquvchisiz yo'qotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj 729 nafar talabalarning 2 mlrd 100 mln so'mlik to'lov shartnoma mablag'lari beg'araz to'lab berildi. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan 16 ta mehribonlik uyi, 4 ta bolalar shaharchasi hamda 86 ta nogironlik muassasalarida 106 nafar "Yoshlar yetakchilari" ishtirokida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash, ularga motivatsiya berishga qaratilgan 100 dan ortiq ijtimoiy loyihalar amalga oshirildi.

Tashkilot tomonidan mehribonlik uylari bitiruvchilariga davlat tomonidan ajratilayotgan barcha imtiyoz va kafolatlar (uy-joy, ish bilan ta'minlanish, oliy ta'limga kirish kvotalari) bilan shaffof va adolatli ravishda ta'minlanish darajasini monitoring qilish va bu sohadagi statistik raqamlar balansini real holatga keltirish maqsadida yagona elektron platforma ishlab chiqilib, mamlakatimizdagi 16 ta mehribonlik uyi, 4 ta bolalar shaharchalari hamda 3 ta SOS bolalar mahallalarida istiqomat qilayotgan tarbiyalanuvchilar hamda vasiylik va homiylikka olingan yoshlar, 86 ta nogironlik muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar "yoshlardaftari.uz" elektron platformasiga yuklandi.

Bundan tashqari ularning bandligi va uy-joy bilan ta'minlanishi mexanizmlari ishlab chiqilib, "Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 11-martdagi 132-son hukumat qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining haydovchilik kurslarida o'qish xarajatlari va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmati

badali Davlat byudjeti mablag'lari (Yoshlar jamg'armalari) hisobidan to'lanadi. Hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahridagi mehribonlik uyi bitiruvchilari orasidan haydovchilik kurslarida o'qish va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga boruvchi yoshlar ro'yxati shakllantirilmoqda.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrida "Yoshlar daftri"ga kiritilgan moddiy ahvoli qiyin yoshlarga (chin yetim, mehribonlik uyi, bolalar shaharchasi, SOS bolalar mahallalari hamda muruvvat uylarida tarbiyalangan, boquvchisiz yo'qotgan hamda ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga) bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha bir martalik moddiy yordam ko'rsatish maqsadida yangi tartib ishlab chiqildi.

Albatta, bu chora-tadbirlar mehribonlik uyi bitiruvchilarining hayotiga ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda ko'mak va rag'bat vazifasini o'taydi deb o'ylaymiz, zero mehribonlik uyi bitiruvchilarini ijtimoiy himoya qilishning eng dolzarb va o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri bu ularni munosib ish o'rinalari bilan ta'minlash va ochiq mehnat bozorida ishga joylashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish hamda oliy ta'lim bilan qamrab olinishidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 28-iyul kuni kam ta'minlangan oilalar hamda mehribonlik uylarida istiqomat qiluvchi bolalarni qo'llab-quvvatlashga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida qabul qilingan qarorlar, jumladan sohada yangi tizim joriy qilinib, 16 ta "Mehribonlik uylari" va 4 ta "Bolalar shaharchalari" Xalq ta'limi vazirligi tizimidan Milliy gvardiyaga o'tkazilishi haqidagi yangilik xalqimiz tomonidan mamnuniyat bilan kutib olindi.

Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar aynan mazkur yo'nalishdagi yillar davomida yig'ilib kelayotgan muammolarga yechim bo'ldi. Jumladan: joriy yildan boshlab Vasiylik, homiylik va patronatga olingan bolalar ham oliyog'irlarga kirishda Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalari bitiruvchilari uchun ajratilgan qo'shimcha kvotadan foydalanadilar (Mehribonlik uylarini tugatgan yetim bolalarning 141 nafari oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirdi. Shundan 94 nafari (67%) 2020-yil bitiruvchilardir).

Mehribonlik uylari bitiruvchilarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi yanada takomillashtirilib,

18 yoshga to'lgan uy-joyga muhtoj yetim bolalarga yangi qurilgan uy-joylar bepul ajratiladi.

Buning uchun, 757 nafar bolaga uy-joy sotib olishga joriy yilda byudjetdan 120 milliard so'm yo'naltiriladi (2011-2020-yillarda Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchasini tugatgan va uy-joyga muhtoj 1188 nafar bitiruvchidan 610 nafariga uy-joy berilgan. 2021-yilgi bitiruvchilarning uy-joyga muhtoj 139 nafarini hisobga olganda, jami 710 nafar Mehribonlik uylari bitiruvchilari turar-joyga muhtoj).

Endi Yevropa davlatlari tajribasiga nazar tashlasak. Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi Yoshlar muam-molarini o'rganish instituti tomonidan tayyorlangan ma'lumotlar e'tiborimizni tortdi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida oila masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shu sabab yerdah mehribonlik uylarini uchratish qiyin. Mamlakatda ota-onalari qarovsiz, yetim qolgan bolalarni tarbiyalash masalasi bilan shug'ullanadigan maxsus idora mavjud. Bolalarga yordam va oila xizmatlari Departamenti (Department of children and family services - DCFS) oilasidan ajralgan bolalarga qisqa muddatda tarbiyalovchi - "foster oila" topib beradi. (Ma'lumot uchun: bugungi kunda qariyb 428 ming nafar amerikalik bolalar "foster" oilalarda istiqomat qilmoqda. Ularning orasida bir necha oylik go'dakdan tortib 18 yoshgacha bo'lgan bolalar bor).

Foster oilalarda o'rtacha tarbiyalanish vaqti 1 yildan oshiqroqni tashkil etib, bu vaqtga qadar bolalarni asrab olganlar ota-onalik huquqini sud qaroriga qadar qo'lga kiritishmaydi. Oilada qolish qarorini bolalar qabul qiladi, shuningdek asrab olgan ota-ona ham bolaning oilada qolishi bo'yicha o'z fikrini bildirish huquqiga ega.

Aksariyat hollarda bolalar foster oilalarida tarbiyalovchilarini ke-yinchalik ota-onalari sifatida qabul qilishadi. Hukumat "foster" oilalar uchun barcha sharoitni (uy-joy va moddiy mablag'ni) yaratib beradi.

Ma'lumot uchun: Har yili amerikaliklar 135 mingga yaqin bolani asrab olishadi. Ulardan 26% boshqa davlatlardan, 59% "foster oilalar" hamda 15% tug'ilganidayoq onasi-voz kechgan bolalardan (bolalarga yordam va oila xizmatlari Departamenti homiladorlik davridayoq bolalardan voz kechuvchi ayollar ro'yxatini yuritadi).

Germaniyada 1991-yilda qabul qilingan "Bolalarga va yoshlarga yordam to'g'risida"gi Qonunda "Har bir bola va o'smir o'z hayoti uchun mas'uliyatga va jamiyatga moslashishi uchun ko'makka ega

bo'lish hamda shaxsiyatini tarbiyalash huquqiga ega" ekanligi qayd etilgan. Germaniyada yetim qolgan bolalarga nafaqat davlat tashkiloti balki nodavlat tashkilotlar ham e'tibor qaratadi.

Germaniyadagi yetim qolgan bolalarni tarbiyalovchi nodavlat tashkilotlarning faoliyat yuritishi bu borada yangi mexanizm hisoblanadi. Misol uchun, "Yoshlar buniyodkorlik tashkiloti" federal ishchi uyushmasi ana shunday tashkilotlar sirasiga kiradi. Bu kabi NNTlar hukumatning doimiy nazoratida turadi. NNTlarni ochishga qo'yiladigan asosiy talablardan biri - uning asoschisi bo'lgan shaxs pedagogik stajga ega bo'lishi lozim.

Bolalarni tarbiya maskanlariga joylashtirish faqatgina oilada qo'llanish hec qanday imkoniyatlari bo'lmasagina amalga oshadi. Yetim qolgan bolalarni tarbiyalashning ne-mischa usullaridan yana biri bolalar shaharchalari tizimidir (O'zbekistonda shu kabi tizim SOS bolalar mahallasi shaklida yo'lga qo'yilgan).

Buyuk Britaniyada yetim qolgan bolalar uyiga vaqtinchalik (respite care) hamda doimiy (residential care) asosida joylashtiriladi. Bu oilada bolaning sog'lom turmush kechirishi uchun imkoniyatlar qolmaganda yoki oiladagi nizolar bartaraf etilgunga qadar qo'llaniladi. Bu qachonki ota-onalar bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanishga o'z ekanliklari yoki bolaning hayoti uchun xavf yuzaga kelgan taqdirda mahalliy boshqaruv organlari masalaga aralashadi.

Bolani tarbiyalash istagidagi boshqa qarindoshlari topilmasa muqobil, ko'ngilli oilalar qidirish boshlanadi. Sud bolaga uni asrab oluvchi oila zarurligi haqida qaror qabul qilsa, yangi oila izlashga kirishiladi. Ungacha bolalar maxsus bolalar uylarida qolishadi. Ba'zan ko'ngilli oilalar tezda topiladi, ba'zan bolalar bu kabi muassasalarda ikki yilgacha qolib ketishadi. Agar ijtimoiy xizmatlar bolaning o'z uyidagi ahvol ijobiy tomonga o'zgariganini qayd etishsa, ular o'z oilalariga qaytariladi.

Kanadada qariyalari uylarini mehribonlik uylari bilan birlashtirish tajribasi mavjud. Ekspertlar-ning fikriga ko'ra, qariyalari uylari va mehribonlik uylarini birlashtirish tajribasi, katta va yosh avlodlarda yolg'izlik tuyg'usini yo'qolishiga, bolaning hayoti, jamiyatga ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularning hayotidagi mas'uliyat va ahmiyat hissi oshadi.

Shifokorlarning ta'kidlashicha, ushbu choralar natijasida keksalarda barcha hayotiy funksiyalar yaxshilangani qayd etilmoqda.

Umuman olganda, qaysi davlatda, qaysi mintaqada bo'lmasin, ota-onalarni o'z farzandidan voz kechishdek qarorga kelishiga nima majbur qilmoqda? Bunday afsuslanarli qarorga kelishga hayotning og'ir shartlari, oiladagi ayanchli ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, mehnat migratsiyasi sabab bo'lishi mumkin. Aksariyat holatlarda ota-onalar o'z farzandlari uchun munosib shart-sharoit yaratib bera olmasalar, bolalar uylarida ularga yaxshiroq g'amxo'rlik qilinadi, degan maqsadda o'z farzandlarini istamagan holda internatlarga topshiradilar.

Tahillarga ko'ra, bugun bu kabi muassasalarda respublika miqyosida 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 1870 nafar yetim va ota-onasiz qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar tarbiyalanmoqda. Shundan 338 nafari (18%) chin yetim bolalar, 499 nafari (27%) ijtimoiy yetim bolalar, 684 nafari (36%) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar-ning farzandlari, 184 nafari (10%) kam ta'minlangan oila farzandlari, 69 nafari (4%) nogironligi bo'lgan shaxslarning farzandlari, 96 nafari (5%) ozodlikdan mahrum qilinganlar farzandlaridir.

Yuqoridagi raqamlarga qarab turib beixtiyor insonparvarlikning yuksak namunasini ko'rsatgan Shomah-mudovlar oilasini esga olmaslikning iloji yo'q. Davlatimiz tomonidan berilayotgan imtiyozlar va ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik oilaning o'zini bosa oladimi? Millatimizga xos bo'lgan urf-odat, an'ana va qadriyatlar to'g'risidagi tushunchalarni?

Bilasizmi, bugun afsus bilan tilga olishimiz kerak bo'lgan bir achchiq haqiqat bor, aksariyat kam ta'minlangan oila ota-onalari o'z farzandlarini tirik yetim qilib, davlatimiz tomonidan yetim bolalarga beriladigan imtiyoz va moddiy afzalliklarga ega bo'lish ilinjida o'z farzandlarini muassasalarga joylashtirishmoqda, buni qanday tushunish mumkin? Shunday ekan oldimizda turgan eng asosiy vazifa - yetimlik oqibatlarini bilan kurashish emas, balki uning oldini olish, himoyaga muhtoj oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash hamda inkluyuziv (uyg'unlashgan) rivojlanishga ko'maklashuvchi mexanizmlar-ni amalda joriy qilishdir. Zero Prezidentimiz so'zi bilan aytganda: "Birorta bola 'men yetim yoki nogironman' deb o'ksinmasligi, hech bir bola davlatimiz va jamiyatimizning e'tibori va mehridan chetda qolmasligi kerak. Buning uchun, ularni eng zamonaviy kasb-hunarga o'qitish, bilim olishiga barcha sharoitlar-ni yaratib berish barchamiz uchun nafaqat vazifa, balki muqaddas burchdir".



“YOSH SAYLOVCHI” AKSIYASI TASHKIL ETILADI

Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamkorligida “Yoshlarning siyosiy bilimlari va huquqiy madaniyatini yuksaltirish” mavzusidagi “Yosh saylovchi” aksiyasini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha brifing bo'lib o'tdi.

Unda Yoshlar ishlari agentligi hamda Yoshlar ittifoqi markaziy kengashi mutasaddilari hamda faollari, “Tokio-2020” olimpiadasi sovrindorlari, bir guruh yoshlar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Brifing noan'anaviy tarzda boshlanib, “Tokio-2020” olimpiadasi oltin medali sohibi Bahodir Jalolov so'zga chiqdi hamda barcha O'zbekiston yoshlarini oldimizda turgan muhim siyosiy jarayon – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida faol ishtirok etishga chorladi: “Chunki ushbu saylov bizning ertamiz, kelajagimiz bilan bog'liq. Shuning uchun har birimiz faol bo'lib, o'zimiz uchun, kelajagimiz uchun ovoz berishimiz kerak”, dedi boks bo'yicha jahon chempioni.

Shundan so'ng O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi raisi Shavkat Zayniddinov so'zga chiqib, bu yil mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon – Prezidentlik saylovi bo'lib o'tishi, bu jarayonda yurtimiz yoshlari faol ishtirok etishi lozimligi, buning uchun zarur chora-tadbirlar ko'rilayotgani, tayyorgarliklar qizg'in ketayotganini ta'kidladi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohani rivojlantirish borasida qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarining mazmun-mohiyatini yoshlarga yetkazish, ularning ijtimoiy-siyosiy bilimlari va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, saylov jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash maqsadida joriy yilning sentyabr-oktyabr oylari davomida “Yoshlarning siyosiy bilimlari va huquqiy madaniyatini yuksaltirish” mavzusida yoshlar aksiyasini o'tkazish belgilandi.

Mazkur aksiya doirasida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda bir qator loyihalarni amalga oshiriladi.

Jumladan, yoshlarning elektoral madaniyatini yuksaltirish, huquqiy bilimlarini yana-da mustahkamlash, saylov jarayonlaridagi faolligini oshirishga qaratilgan “Yosh saylovchi.uz” elektron platformasi tashkil etilib, ayni paytda test rejimida ishga tushirilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – butun O'zbekiston yoshlarini birlashtirish, ularni o'z saylov huquqlaridan foydalanib, Prezidentlik saylovida faol ishtirok etishga targ'ib qilish, shuningdek, viloyat, tuman va mahallalar bo'yicha yoshlarning bu jarayonda qay darajada ishtirok etayotganini kuzatib borishdan iborat.

– “Yoshsaylovchi.uz” elektron platformasi mamlakatimizdagi saylov jarayonlarida birinchi marta amaliyotga tatbiq etilayotgan muhim yangiliklardan biridir, – deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi raisi o'rinbosari Sherzod Olimov. – Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 18 milliondan ortig'i, ya'ni 54 foizini yoshlar tashkil etadi. Ularning 7,5 millionga yaqini 18 yoshdan yuqori, saylov huquqiga ega bo'lgan yoshlardir. 837 ming 952 nafar yigit-qiz esa birinchi marta ovoz berish huquqidan foydalanadi. Bu esa saylovchilar kontingentida yoshlar eng katta kuch ekanligini ko'rsatadi. Shu bois ham ushbu siyosiy jarayonda yoshlarning faolligini, huquqiy madaniyatini oshirish muhim masalalardan hisoblanadi. Bunda

“Yoshsaylovchi.uz” elektron platformasi bizga katta yordam beradi.

Brifingda “Yoshsaylovchi.uz” elektron platformasining imkoniyatlari batafsil tushuntirildi. Shuningdek, yoshlar aksiyasi doirasidagi loyihalarni haqida ma'lumotlar taqdim etildi.

Ta'kidlanganidek, mazkur oylik doirasida targ'ibot-tashviqot ishlarini namunali tarzda tashkil etish maqsadida “Yosh targ'ibotchilar” guruhi shakllantirilib, 110 mingdan ortiq ko'ngilli yoshlar jalb etilgan. Targ'ibot guruhi a'zolarining ijtimoiy-siyosiy bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv-seminarlar, vebinarlar tashkil etish ko'zda tutilgan. Qayd etilganidek, “Yoshlarning siyosiy bilimlari va huquqiy madaniyatini yuksaltirish” aksiyasining yuqori saviyada o'tishiga hissa qo'shgan faol yoshlar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Tadbir davomida ishtirokchilar so'z olib, yoshlar aksiyasining ahamiyati, mazkur saylovning mamlakatimiz va har bir fuqaro hayotidagi o'rni, saylov jarayonlarida yoshlarning ishtiroki haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Shuningdek, hududlardan onlayn tarzda ishtirok etgan yoshlar vakillari o'z regionlarida saylovga qay tarzda tayyorgarlik ko'rilayotgani, yoshlar bilan ishlash borasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar haqida ham to'xtalib o'tishdi.

Brifingda barcha yoshlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida faol ishtirok etib, o'z kelajagi uchun saylov huquqidan foydalanishga chaqirildi.

**Muhtarama KOMILOVA,
O'ZA muxbiri**



SIYOSIY PARTIYALARNING PREZIDENT SAYLOVIDA ISHTIROK ETISHIGA RASMAN RUXSAT BERILDI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

– Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha barcha ishlar Saylov kodeksiga qat'iy rioya qilingan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish bo'yicha kalendar rejasiga muvofiq amalga oshirilmoqda, – dedi Markaziy saylov komissiyasi Raisi Z. Nizomxo'jayev.

Mamlakatimiz saylov qonunchiligiga muvofiq, okrug saylov komissiyasi a'zolariga nomzodlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan saylov okruglari tuzilganidan so'ng uch kun ichida Markaziy saylov komissiyasiga tavsiya etildi. Saylov kodeksida okrug saylov komissiyasi a'zolari soni 21 nafargacha bo'lishi belgilangan.

Saylov kodeksining 21-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish bo'yicha okrug saylov komissiyasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida yetmiş kun qolganida komissiya raisi, rais o'rinbosari, kotibi va komissiyaning sakkiz nafardan – o'n sakkiz nafargacha boshqa a'zolaridan iborat tarkibda tuzilishi lozim.

Yig'ilishda barcha okrug saylov komissiyalariga tavsiya etilgan nomzodlar o'rganib chiqilib, tasdiqlandi.

Markaziy saylov komissiyasi kotibiyat rahbari Xudoyor Mamatovning qayd etishicha, ayni paytda 14 ta saylov okrugidagi saylov komissiyasi a'zolari soni 266 nafarni, ulardan 104 nafarini ayollar, 14 nafarini nogironligi bor shaxslar tashkil etmoqda. Mutaxassisligi bo'yicha olganda, 32 nafari huquqshunos, 21 nafari shifokor, 26 nafari muhandis, 90 nafari pedagog, 41 nafari iqtisodchi, 11 nafari jurnalist va 45 nafari boshqa soha vakillari-

dan iborat. Bu yilgi Prezident saylovini o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalari tarkibida 21 yoshgacha bo'lgan 23 nafar yigit-qiz bor. 41 yoshgacha bo'lgan navqiron avlod vakillari esa 77 nafarni tashkil etadi.

Okrug saylov komissiyalari zimmasiga – o'z hududlarida Saylov kodeksining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish, saylov uchastkalarini tuzish, ularning tartib raqamini belgilash va manzilini ko'rsatgan holda ro'yxatini e'lon qilish, uchastka saylov komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, saylov uchastkalarining joylashgan yeri haqida saylovchilarni xabardor qilish, uchastka saylov komissiyalarini tuzish, tarkibini tasdiqlash va bu haqdagi ma'lumotlarni e'lon qilish, nomzodlarga saylov kampaniyasida ishtirok etish uchun teng sharoitlarni ta'minlash kabi vazifalar yuklatilgan.

Majlisda O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 14, 16, 63-moddalariga muvofiq Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Ekologiya partiyasi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etishga ijozat berishni so'rab taqdim qilgan hujjatlarini ko'rib chiqib, mazkur partiyalarga 2021-yil 24-oktabr kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etishni qabul qilindi.

Endi siyosiy partiyalar Markaziy saylov komissiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodni ro'yxatga olishni iltimos qilib ariza bilan murojaat qila oladi.

Bunda ular tomonidan siyosiy partiya yuqori organining O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko'rsatish to'g'risidagi qarori, siyosiy partiya yuqori organi majlisining

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko'rsatish to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, kasbi, lavozimi, ish va yashash joyi, partiyaviyligi ko'rsatilgan bayonnomasi, nomzodning o'z nomzodi ovozga qo'yilishiga rozi ekanligi to'g'risidagi arizasi, nomzodni ko'llab-quvvatlovchi imzo varaqlari ham topshiriladi. Mazkur imzo varaqlarida O'zbekiston Respublikasi jami saylovchilari umumiy sonining kamida bir foizining imzosi bo'lishi kerak.

Majlisda shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillarining akkreditatsiyasi to'g'risidagi qaror loyihasi ham ko'rib chiqildi.

Aytish joizki, Markaziy saylov komissiyasi ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik, saylov jarayoni ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalalariga doimo alohida e'tibor qaratib keladi. Saylovlar davrida jurnalistlarga o'z faoliyatlarini amalga oshirishi uchun yanada qulay sharoitlarni yaratish maqsadida ularni akkreditatsiyadan o'tkazish davom etmoqda.

Hoziroq paytda Markaziy saylov komissiyasiga akkreditatsiyadan o'tkazishni so'rab ko'plab ommaviy axborot vositalaridan murojaatlar kelmoqda. Shu kungacha 700 nafardan ziyod OAV vakillari akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Majlis so'ngida kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan Markaziy saylov komissiyasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

Shu kunning o'zida mazkur siyosiy partiyalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etishga ijozat berish to'g'risidagi guvohnomalar hamda belgilangan miqdorda imzo varaqlarining blankalari topshirildi. Shu bilan birga, akkreditatsiyadan o'tgan jurnalistlarga ham tegishli tartibdagi guvohnomalar berildi.

**Nurillo NASRIYEV,
O'ZA muxbiri**



Дурман, ПЕРЕЧЕРКИВАЮЩИЙ СУДЬБЫ

Греческое слово *narke* обозначает «оцепенение», а *narkotikos* – «приводящий в оцепенение, одурманивающий». Наркотики – группа веществ растительного происхождения и получаемых химическим путем, оказывающих болеутоляющее и снотворное действие.

Никогда не задумывались, почему люди, перенесшие операцию под общим наркозом, некоторое время находятся словно не в себе: чаще всего их подводит память или мучают головные боли? Да потому что первая мишень наркотических веществ – это мозг. Однако здесь идет речь о ситуации, когда применения специальных лекарственных средств не избежать.

НАРКОТИКАМ – «НЕТ!»

А когда добровольно принимают отраву для организма, возникают тысячи «почему?». Странно, вроде в информации о наркомании и ее последствиях нет недостатка, а у торговцев запрещенным товаром покупателей не убывает. Почему человеку так хочется ощутить действие дурмана? Как уберечь близких от того, что мяско называют «редной привычкой», хотя каждый должен знать: это страшная болезнь, разрушающая организм, ведущая к деградации личности?

ЗАМКНУТЫЙ КРУГ

У тех, кто наживается на людских трагедиях, особый нюх на потенциального клиента. Человек подавлен, разбит, переживает боль – они тут как тут: «Попробуйте волшебное средство. Сразу легче станет». Обманное чувство эйфории заставляет повторять прием, а там и до зависимости недалеко. Потом организм начинает сигнализировать болью, и требуется гасить приступы.

Доза увеличивается – желание удовольствия не наступает. Человек перестает быть человеком. Дурман разрушает не только его органы, лишает нормальной жизни в кругу родных людей. Больной становится злым, проявляет жестокость по отношению к самым близким, идет на преступление... И все ради того, чтобы снова испытать «спасительное» забытие, в котором иногда находят место видения – неосуществленные мечты. Они кажутся реальными, к ним хочется вернуться любой ценой.

ПОСЛЕДНИЙ НОКАУТ

Андрею прочли блестящее спортивное будущее. Он и сам уже видел себя чемпионом мира по боксу. Проводя много времени на выездных соревнованиях, дома презрительно фырчал за столом. «Я в нищете жить не буду!» – повторял он, любуясь мускулами.

Чемпионского титула не добился, разбогатеть не успел. Неудачно упал в гололед и получил сложный перелом. Вместе с рукой сломалась и карьера. Не имея серьезных знаний (все время посвящал тренировкам, оценки в школе рисовали за медали, привезенные с турниров), смог продолжить учебу только в «шараге». Там попробовал марихуану, под веселящий дымок рассказывая лжеприятелям о былых победах и упиваясь их удивлением...



Скатился быстро. Имея крепкое телосложение, устроился в ночной клуб вышибалой. Не осознавая, что перед ним пропасть, подсел на более серьезные препараты. Однажды в состоянии наркотического опьянения почувствовал крылья за спиной и решил полетать: спасли кронштейны для белья, прыжок с четвертого этажа закончился несколькими переломами.

Напрасно матери твердили, что без наркотиков здесь не обошлось. Женщина готова была разорвать каждого, кто причислял ее Андрюшеньку к наркоманам. Убедилась в этом поздно, когда сынок вытасил из дома все мало-мальски ценные вещи. Превратил квартиру в притон, так что женщине приходилось просить приюта у родственников.

В минуту просветления удалось договорить его лечь в больницу в первый раз. Потом были срывы и новые госпитализации, проверки на употребление наркотиков в диспансере. Довелось пережить коматозное состояние. Оправился. И снова, вняв уговорам матери, отправился на лечение. В 28 лет. Последнее. На введенный препарат мозг отреагировал отеком. Так и

получил несостоявшийся спортсмен свой единственный нокаут.

БОЛЕЗнь НЕУВЕРЕННЫХ

Врач-психотерапевт Республиканского научно-исследовательского специализированного наркологического центра **Шоякуб Шомуродов**, работающий в отделении реабилитации, комментирует ситуацию:

– Неуверенные люди более подвержены дурному влиянию. Неудивительно, что подавленный из-за краха надежд спортсмен, увидев рядом с собой сочувствующих слушателей, затаился впервые сигаретой с марихуаной. Он не способен был отличить фальшивую поддержку от искренности. Те, кто занимается сбытом наркотических средств, – хорошие психологи, знают, на каких струнах души играть. Интерес проявляется до поры, пока клиент созреет. С формированием зависимости все пойдет по знакомому сценарию. Их будут искать, у них будут просить, кланчить, вымалывать, обещать что угодно.

Сыграл свою роль и недостаток внимания. Удивительно, мать не замечала, что ее сын теряет себя. Когда юноша получил травму, ему была необходима поддержка. Не слепая материнская любовь, а разумный анализ ситуации, переклюкающий на другой род деятельности.

Когда человеку нечем заняться, он ищет спасение в уходе от реальности. Так получилось и с Андреем. Эгоистичный от природы, он не мог сопротивляться обстоятельствам, не мог представить себя зарабатывающим на жизнь иным путем. Скорее всего, окружающие, стараясь сделать ему приятное, говорили, каких бы высот он мог достичь. Тем быстрее парень деградировал, после приема наркотического средства упиваясь возможной слабой перспективного боксера.

То, что не получилось закрепить результаты реабилитации, – следствие субальбологии, зачастую свойственного индивидуам богатырского сложения. Неудался на силу – и вдруг потерял. Осталась пустота.

Этот интеллектуальный и энергетический вакуум чрезвычайно опасен. Безделье развращает, приводит на неправильный путь. Оказавшись рядом «спаситель», как паук, затягивает в свои сети, обещает, что все забудется, стоит только... Сколько человек потом жалеют, что «попробовали» и втянулись.

(Окончание на 8-й стр.)

Новости

В рамках программы COVAX

В Узбекистан из Франции доставили следующую партию вакцины AstraZeneca объемом свыше 276 тысяч доз.

Наша страна получила первую партию AstraZeneca (Covishield), состоящую из 660 тысяч доз, в марте. С новой поставкой общий объем доставленных в республику вакцин достиг 14,85 миллиона доз. Из них: 370 000 доз – «Спутник V»; 986 480 доз – AstraZeneca; 10 500 000 доз – ZF-UZ-VAC2001; 3 000 060 доз – Moderna.



Анонимно и оперативно

«Врачи без границ» и Республиканский центр по борьбе со СПИДом запустили мобильную лабораторию для тестирования на ВИЧ, гепатит С и ЗППП.



Планируется, что в ближайшее время лаборатория, расположенная в специально оборудованном автобусе, будет курсировать по Ташкенту и Ташкентской области. В дальнейшем радиус действия может быть расширен.

«Мобильная диагностика позволяет выявлять заболевания на раннем этапе. Тестирование проводится анонимно, оперативно и квалифицированно. Таким образом, появляется возможность в случае необходимости своевременно перенаправить пациентов в медицинские учреждения», – отметила доктор «Врачей без границ» Дилором Бабаходжаева.

Передвижная лаборатория может эксплуатироваться в любых климатических условиях, обеспечивая высокую точность исследований и соблюдение санитарно-гигиенических и эпидемиологических требований.

Зарабатывать... ходьбой!

Платформа «Здоровый образ жизни» (1hls.uz) для пропаганды ежедневной ходьбы и бега среди населения подвела итоги июля.

Напомним, граждане в возрасте 18 лет и старше при прохождении в течение суток 10 тысяч и более шагов получают на свой электронный кошелек 3000 сумов. При этом раз в месяц пользователю платформы, прошедшему наибольшее расстояние в разрезе района (города), выплачивают 300 тысяч сумов, в разрезе регионов – 500 тысяч, а лидеру по шагам на республиканском уровне – миллион сумов.



Первое место на уровне района, города и республики занял 34-летний житель Яшнабадского района Ташкента Улугбек Тойров, который за месяц прошел более 1,8 миллиона шагов (около 42 километров в день). В сумме он заработал 1,8 миллиона сумов.

В июле в регионах страны определили 203 победителей, которым в общей сложности должны выплатить 68,9 миллиона сумов.

Олимпийский стрит-арт

Художники-иллюстраторы отечественной компании Novda Group выступили с предложением запечатлеть для истории результаты наших спортсменов на Олимпиаде-2020 в Токио с помощью муралов на боковых стенах многоэтажек.



Идею поддержала глава Сената Олий Мажлиса Танзила Нарбаева: «Такие инициативы – еще одно доказательство тому, что у нас в стране много талантливых и деятельной молодежи. Искусство нужно поощрять. Стрит-арт и паблик-арт в руках смелых и ярких превращаются в инструмент для переосмысления городской среды».

Как утверждают авторы, данная работа станет своего рода памятником и данью уважения нелегкому труду спортсменов, тренеров и ярким подарком к 30-летию независимости страны.



Жак-Анри Бернанден де Сен-Пьер. Замечали, как собаки и кошки сразу чувствуют хорошее отношение? И пусть человек, отмеченный даром доброты, даже не сможет взять найденного животного домой – он останется безучастным. Запустит эстафету милосердия среди знакомых, чтобы найти четвероногого хозяина, накормит, полечит, отвезет в приют.

Журналист Юлия Резникова живет в кошачьем царстве. Дошло до того, что пушистики стали подбрасывать ей под дверь в коробках. Знают, что оттолкнуть, оставить в подъезде на расправу жестоким подросткам совесть не позволит. И берет женщина за телефон, объясняя, какое чудо появилось в ее доме и какое счастье – иметь рядом такое преданное существо,

Могут ли они сравнивать вчера и сегодня? Зато хозяйка вспоминает, сколько хлопот стоило превратить слабенького пискуна Вуча в холеного котяру. Подоконник на втором этаже высоты – место тусовки усатых-полосатых. Туда мяукающие мамы приносят среди знакомых, чтобы найти четвероногого хозяина, накормит, полечит, отвезет в приют.

– Прописываются они у нас после какой-нибудь драмы, – рассказывает Татьяна Константиновна. – У дочери особый слух на писк. В любой щели разыщет малыша. Сразу к ветеринару. Только Вуч нормальный облик принял – свалилась в подвал двуухая кошечка. Дочь такую деятельность развернула, сама в подвал за ней лазила. Опять ветеринар, лече-

с его острыми зубами (захотела покормить из рук), не рассердилась. Любви к грызуну не уменьшилось. По-взрослому рассуждает, что пока у нее недостаточный уровень ответственности. Не может понять, каким черствым нужно быть, чтобы бросить собаку.

– Я бы со своей никогда не рассталась! Для неказистой дворняжки, в рыжих и коричневых пятнах, с несимметричными ушами и торчащей во все стороны шерстью, встреча с модельером Татьяной Коваленко стала счастливой. Отняла у компании подростков. Дома, глядя на принесенное с улицы сокровище, не знали, смеяться или плакать. Собачонка бросалась в глаза своей непохожестью на других, на нее показы-

ПОМОЖЕМ, ЗАЩИТИМ!

Количество комментариев под информацией о том, что АКФА Group открыла приют для собак «Mehr» в Пскентском районе Ташкентской области, пожалуй, скоро поспирит по объему с информацией о первом в стране шептере с ветеринарной и кинологической службами. Одиннадцать блоков с вольерами готовы принять 1000 собак. Первые питомцы уже обживают новое место. Продумано все: квалифицированная ветеринарная помощь с хирургическим отделением, блоки для молодняка и кормящих мам, карантинное отделение, двухразовое питание. Бездомных животных здесь будут социализировать и приручать. Социализация – важный момент, своего



БРАТЬЯМ МЕНЬШИМ В ГЛАЗА ЗАГЛЯНИ

Третья суббота августа определена международным сообществом как дата милосердия и понимания братьев наших меньших. Всемирный день бездомных животных – не праздник. Это крик всей Земли, призывающий людей к человечности. В этот день во всех странах проводятся мероприятия, героями которых становятся бездомные животные. К живущим в приютах приходит много гостей, счастливицы обретают хозяев. Обычно цифры «кусыновления» бывают самыми высокими именно во второй половине августа.

«Отдам в хорошие руки!» – такими объявлениями пестрят соцсети, их можно увидеть в газетах, на автобусных остановках, они запускаются по сарафанному радио. Хорошо, если хозяева находятся, а если нет?.. Нередко собаку или кошку выдворяют на улицу. Реже питомцы теряются, и их по той же причине ненужности никто не ищет. Так появляются бездомные животные. От них на улице рождаются другие. Бывших любимцев оставляют при переезде, кто-то с болью в сердце, кто-то равнодушно. С пандемией число брошенных увеличилось: многим стало не до братьев наших меньших – свои бы проблемы решить. И будят по ночам жителей многоэтажных домов громкие кошачьи арии, пугают собаки, собравшиеся в стаи...



теплого (известна способность кошек уменьшать боль, даже излечивать некоторые заболевания) терапевта. Кто-то демонстрирует фотографии с заморских пляжей, а Юлия – глазастиков, ушастиков, хвостиков. Среди домочадцев Татьяна Печенкиной непременно кошки. Вальжанные, с претензией на личное пространство в квартире. Кто знает, существует ли кошачья память о времени боли и бедствия?

Среди домочадцев Татьяна Печенкиной непременно кошки. Вальжанные, с претензией на личное пространство в квартире. Кто знает, существует ли кошачья память о времени боли и бедствия?

Манеры Киры Янбаевой подкупают искренностью. За семиклассницей интересно наблюдать. Если на ее пути что-то ползает, летает, прыгает, девочка остановится, рассмотрит, выдаст заключение, как относятся к живности хозяева и есть ли они вообще. Кормит птиц, кошек, даже пчелам сладкую водичку за окно выставляла. Несколько раз всей семьей выжила воробьев. Чуть не прыгала от счастья, когда удалось поймать для птицы пару комаров. День выпуска на волю превратили в праздник. Правда, безуспешно пыталась разглядеть своего воробушка среди его пестрых сородичей.

Слова Экзюпери подкрепляет делом, ухаживая за хомьяком. Даже познакомившись



При создании нового приюта «Mehr» за основу был взят успешный опыт европейских зоозащитников. На площадке в гектар есть возможность комфортно разместить 1000 собак.



вали пальцами прохожие. А Люську полюбили. Она звончком приветствовала свою спасительницу, делилась радостью жизни. Когда пришло время переезжать в другой город, встал вопрос о самом беззащитном члене семьи. Татьяна плакала: «Оставить не могу. Вряд ли кто ее возьмет. Она ж у нас колоритная». Оформили собачьи документы – отправились дворняга в долгое путешествие. Теперь с весточками о своем житье-бытье Татьяна докладывает о том, как поживает старушка Люська.

Простые истории, без капли вымысла, показывают, что оставаться человеком – важная миссия царя природы.

рода страховка, что подопечный снова не окажется на улице, если не найдет взаимопонимания с хозяевами. В семье отправятся обученные кинологами стерилизованные собаки, выполняющие основные команды, приученные к выгулу на поводке и гигиеническим процедурам. Ведь именно неумение себя вести в одиночестве, поведенческие сюрпризы на прогулках, порча домашнего имущества часто становятся веской причиной для расставания с питомцем. Главный кинолог Александра Кирпа отметила, что пристроить собак будет уделять особое внимание. То есть цель найти

не просто хозяина, а такого, который станет настоящим другом. Предварительное собеседование даст представление о человеке, чертах его характера, предпочтениях, готовности заботиться о животном. Учитываются темперамент и привычки собаки.

Условия содержания питомцев обязательно будут контролироваться сотрудниками приюта. Возможны консультации кинолога по телефону. Планируются интерактивные лекционные занятия с детьми.

В комментариях сотрудников приюта называют спасателями. Верное определение. Ведь доброта спасает не только бездомных животных, но и меняет людей. Образованные новости выражают надежду, что эстафету милосердия подхватят и другие крупные предприятия.

СКОЛЬКО НАС?

В одном из интервью Ирода Маткаримова, основательница приюта для бездомных животных «Хаёт», говорит об упреках в свой адрес: «Помогай людям, а не собакам!»

Разве братья наши меньшие достойны только жизни собачьей? Когда некому вступить, если служба отлова выехала на охоту или «добрые» дяденьки и тетеньки разбрасывают отравленную приманку, когда в них летят бульжники и палки, когда над ними издеваются жестокие подростки. И то, что существуют такие приюты, как «Хаёт», – это плюс современному обществу: не все потеряно. И то, что волонтеры проводят в школах уроки доброты, позволяют думать, что ростки гуманного отношения к четвероногим друзьям принесут плоды в будущем.

«Мир не без добрых людей» – в подтверждение этого афоризма неравнодушные граждане нашей страны оказывают приютам помощь. Здесь рады любым подаркам, будь то перечисление средств, продукты, стройматериалы или медикаменты. Да просто прогулка с питомцем, когда его гладят и с ним говорят.

«Какое твое собачье дело?» – иногда слышишь среди брани. Поневолье задумываешься: «Что бы было, если б у каждого такое собачье (в положительном смысле) дело появилось?» Наверное, мир был наполнен особым светом.

Тем, который сейчас несут общества по защите бездомных животных, пока еще немногочисленные приюты, группы в соцсетях. «Хаёт», «Mehr va Oqibat», «Mehr», «Дай шанс», «Четыре лапы»,

«Гавчег»... Расширяются рамки проекта «Мушукент» – совместной инициативы ГУВД и зоозащитников по строительству домиков для бродячих кошек. Недавно к команде неравнодушных активистов присоединилось и Управление охраны Национальной гвардии Республики Узбекистан.

Нас не так много, и без поддержки проблему не решить. Когда говорим об отношении к окружающему миру, призываем: «Начни с себя!» Так пусть каждый и начнет: купит корм или гигиенические принадлежности, расскажет ребенку, какую роль в жизни человечества играют четвероногие друзья, отправится на экскурсию в приют вместе с детьми, поможет старой соседке ухаживать за собакой... Помощь может быть разной. Главное, от чистого сердца.

Ольга АЛЕКСАНДРОВА

В ТЕ «МУ»

- Первый в мире приют для собак на 50 тысяч животных появился в Японии в 1695 году рядом с городом Эдо (зрнее название Токио) по инициативе феодала Токугавы Цунаеси. Богатому правителю дали прозвище «Инукобо», или «Собачий сегун».
- Первый закон в защиту животных принят в Великобритании в 1822 году.
- Самые благоприятные условия содержания животных в Австрии. Здесь запрещается купировать собакам хвосты и уши, использовать диких животных в цирке.
- В 2019 году в Узбекистане усилили ответственность за жестокое обращение с животными. Соответствующие поправки внесены в статью 111 Кодекса об административной ответственности. Штраф за жестокое обращение с братьями нашими меньшими, повлекшее их гибель либо увечье, а равно истязание животных составляет от 1 до 3 МРЗП (ранее – от 0,5 до 2 МРЗП). Правонарушение, совершенное повторно в течение года или в присутствии несовершеннолетнего, влечет наложение штрафа от 3 до 5 МРЗП или административный вост до 15 суток.

СОЦИАЛЬНЫЙ СРЕЗ

С инициативой создания особой даты как всеобщего повода обратиться к проблеме выступило в 1992 году Международное общество по правам животных. Как правило, эпиграфом публикаций, посвященных Всемирному дню бездомных животных, берутся слова Махатмы Ганди: «Моральный прогресс нации можно измерить тем, как человек относится к животным».

КТО В ОТВЕТЕ?

Наверное, каждому доводилось слышать восхищен-

ные детские возгласы: «Ой, котеночек/щеночек! Какой чудесный! Возьмем его к себе». А дальше неизменно следовали обещания, как сын или дочь будут за ним ухаживать, убирать... И большей частью события развивались по знакомому сценарию: ребенка хватало на несколько дней или недель, внимание к «живой игрушке» ослабевало, заботы автоматически перекладывались на родителей. Те либо терпеливо ухаживали за домашним питомцем, либо...



«Мушукент» – совместная инициатива ГУВД и зоозащитников по строительству домиков для бродячих кошек. Планируется, что такие «котодомики» появятся при всех 78 ГОМах.

Дурман, ПЕРЕЧЕРКИВАЮЩИЙ СУДЬБЫ

(Окончание. Начало на 5-й стр.)

Сколько раз больные, находящиеся на реабилитации, произносят «если бы». У истории болезни тоже нет сослагательного наклонения.

«Предупредить легче, чем лечить», – скажет любой врач. Так вот этим предупреждением в первую очередь должны заниматься родители, причащая детей с малых лет к здоровому образу жизни.

Не перекладывать воспитание на школу и общество, а системно, целенаправленно формировать здоровую во всех отношениях личность.

Да, мы помогаем попавшим в пучину зависимости (к сожалению, ее возраст помолодел) возвратиться к нормальной жизни, но каких усилий это стоит. Наше учреждение для тех, кто решил излечиться добровольно. Как правило, их привозят родственники. Сначала реанимационное отделение, где выводят из состояния абстиненции, проводят детоксикацию организма, облегчая работу печени, сердца, почек. Скорость деградации зависит не только от физических критериев, но и от пола. К примеру, у женщин атрофия мозга происходит гораздо быстрее. Таковы особенности психики.


Хотел бы предупредить тех, кому попробовали любовно и кто считает, что от одного раза ничего не произойдет. Каждый организм индивидуален: кто-то подсаживается на наркотики с первого раза. Для того чтобы узнать, что рядом грязь, не обязательно в ней вывалиться. Защитой от подобных экспериментов должны стать знания.

В делении реабилитации (главные критерии – интеллект и желание пациента) используются возможности когнитивно-поведенческой, гипно-, арт-терапии. Медикаментозная и физиотерапия не отменяются, так как физическое восстановление тоже процесс небыстрый. Месяцы работы, которые может перечеркнуть острое желание хотя бы раз вспомнить былые ощущения. Можно поставить крест на реабилитационных мероприятиях. Не зря говорят: «Бывших наркоманов и алкоголиков не бывает». Сегодня он похваляется, что десять лет не употребляет, а завтра встретит друга и отметит встречу привычным образом.

Как становятся наркоманами? Повторюсь. Главная причина – недостаток внимания в семье, отсутствие должной твердости в воспитании. Не приводит ни к чему хорошему гиперопека. Из-под нее всегда хочется освободиться, и желанная свобода, когда все делается наперекор, зачастую уводит с правильного пути. Когда говорят о группе риска, называют семьи с малым достатком. Можно, живя скромно, достойно воспитать детей. Лишние деньги, которыми подменяют общение, – верная дорога к беде. Пресытившийся бездельник жаждет новых острых ощущений. Он не идет в поход с рюкзаком за плечами, не совершает полеты на дельтаплане, а получает быстрое «удовольствие» без малейших усилий. Напомню: в организме есть собственная естественная наркотическая система, которая запускается с помощью двигательной активности или любимого дела, вырабатывая гормоны удовольствия. Она дана нам природой и помогает в разных жизненных ситуациях. Искусственное стимулирование вредит.

Наркомания – болезнь не только личности, но и окружающих, чья задача – не дать близкому человеку заболеть, а если вдруг это произошло, своевременно начать лечение.

ХРУПКОСТЬ БАБОЧКИ



Шожакуб Шорихсиевич любезно согласился показать мне кабинет арт-терапии, который в отделении называют художественной мастерской. Рассматривая рисунки, пыталась понять, каково состояние пациента.

Понравился камень с обнадёживающей надписью: «Либо я найду путь, либо проложу его сам». Типографский плакат предупреждал: «Алкоголь не помогает найти ответ. Он помогает забыть вопрос». То же самое относится к наркотикам, одурманивающим, повергающим в оцепенение. Скорбные складки на лице мужчины запечатлели драматизм пропавших зря лет; аппликация, напоминающая произведение дошкольника, сигналила: болен взрослый, в котором живет обиженный ребенок.

Поразила бабочка – четко выписанный махаон, упершийся лапками в указательный палец. Вроде налицо стремление к свободе, душевной легкости, но человека не пускает решетка. А слышать надо: век бабочки недолог.

Полина ЛЮДИНИНА

КЛАДОВАЯ ПРИРОДЫ

Полосатый антистресс

Витамины B1, B2, B6, C, PP, каротин, фолиевая кислота, ликопин, фруктоза, глюкоза, цитруллин, пантотеновая кислота, углеводы, клетчатка, калий, магний, железо и натрий...

Это не витрина аптеки, а любимая всеми самая большая ягода (точнее, ложная ягода, ее иногда называют «тыквиной», что тоже стало предметом споров) Citrullis lanatus, или попросту обыкновенный арбуз.

Международный день арбуза отмечают в августе. Как-то незаметно национальный американский праздник, прославляющий популярную культуру, перерос во всемирный, подарив людям еще одно увлекательное мероприятие. Ведь витаминные торжества наполнены безудержной фантазией и радостью. Это парады в забавных костюмах с выборами королевы, игры, где роль гигантских шашек возложена на бахчевые, веселое метание плодов, конкурс на поедание освежающего лакомства, ярмарки товаров (шапочки, сумки, тапочки и др.) на арбузную тематику... И много интересной информации.

ИЗ ИСТОРИИ

Кстати, вы знаете, что лидер по выращиванию арбузов – Китай? А что Япония впереди планеты всей по необычным сортам (квадратные, пирамидальные, карликовые)? Первое же место по поеданию сочной мякоти у Америки. Самый большой представитель сорта Каролина-Кросс весом в 122 килограмма выращен американским фермером. На змемном шаре (это 96 стран) культивируется более 1200 разновидностей «полосатого чуда». Самые дорогие – черные, без семечек, в разгар сезона делятся до 50 долларов за штуку.

Начал же арбуз свое победное шествие по планете из Африки: в пустыне Калахари по сей день произрастает его дикий горьковатый на вкус 200-граммовый предок. В XX веке до нашей эры эти самые крупные ягоды помещали в усыпальницы фараонов, дабы властители могли утолить жажду в загробном мире.

ВКУСНО И ПОЛЕЗНО

Плодом радости без преувеличения называют арбуз его приверженцы. Обратите внимание на любого ребенка с долькой любимого лакомства в руках: рот до ушей, в глазах смешинки. И это реакция человека, не задумывающегося о пользе волшебного плода. А у него масса достоинств: рекордное содержание фолиевой кислоты, способность при низкой калорийности утолять голод и жажду, чистить организм от шлаков, сглаживать последствия лучевой терапии... И для спортсменов лучший друг, потому что может похвастаться процентом L-цитрулина – аминокислоты, предотвращающей боль в мышцах.

Народная мудрость отразила и результативность соответствующих разгрузочных дней: «Для матушки княгини угодины дыни, а для батюшкина пуза надо арбуза». Вот только садиться

на такую диету не посоветует ни один врач: семь дней нанесут непоправимый вред метаболизму. Зато один арбузный день в неделю окажет благоприятное действие.

В лечебных целях используются мякоть, корки и семена. Семечки, содержащие железо, цинк, белок и клетчатку, оказывают противовоспалительное действие, улучшают состояние кожи. Арбуз повышает сопротивление организма ультрафиолетовому излучению, хорошее подспорье при лечении малокровия, полезен для глаз и мозга, его ликопин – мощный антиоксидант.

Из корок (при условии отсутствия нитратов) можно с огурцом, лимоном, колотым льдом приготовить освежающий витаминный коктейль.

ЭТИ ЖУТКИЕ НИТРАТЫ

Знаток советуют не бросаться на первые арбузы, так как вероятна опасность отравиться. Именно первый урожай, как самый прибыльный, больше всего «накормлен» азотными удобрениями. Как определить содержание этих вредных веществ? К сожалению, почти всегда это можно сделать только дома. Кусочек мякоти помещают в воду. Если вода становится мутной – бояться нечего, если приобретает ярко-розовый, красный или оранжевый оттенок – продукт опасен. Белые и желтые прожилки, фиолетовый отлив на срезе – тоже тревожный показатель. Продавец обязан предъявить покупателю заключение лаборатории, но многие ли об этом помнят.

Кроме химии, не исключено попадание внутрь грязи. Поэтому нужно обращать внимание на место реализации: соблюдаются ли санитарные нормы. И уж конечно, обязательно тщательно осматривать поверхность плода: трещины, вмятины – повод отказаться от сомнительного удовольствия.

И еще важное дополнение: лучше не есть арбуз на голодный желудок.

О ЛЮБИМОЙ ЯГОДЕ С УЛЫБКОЙ

Свойства арбуза породили множество грустно-смешных высказываний и анекдотов. Один шутник заявил: «Человек, который разбирается в арбузах, постучав в дверь, может понять, хорошая ли в квартире живет семья». Другой съюморил: «Метательница ядра уже четвертый день не может донести арбуз до дома».

Шутки шутками, но разве поставили бы этому чуду природы памятники незаслуженно?! Есть такой на въезде в Самарканд, несколько в России, восемь в США, отметили полезную бахчевую культуру в Китае, Палестине, Турции, Украине. Значит, не зря Марк Твен называл арбуз «Божьей милостью царем земных плодов»...

Подготовила
Ольга ВОЛОДИНА



КАК ВЫБРАТЬ идеальный арбуз?

ПРИЗНАКИ КАЧЕСТВА

СРЕДНЕГО РАЗМЕРА,
НЕ ТЯЖЕЛЫЙ

ПРИ ПОСТУКИВАНИИ
издает умеренно
звонкий звук

ВИБРИРУЕТ при
ударе ладонью

ЕСЛИ СЖАТЬ
издает слабый
хруст

СУХИЕ ушки
и плодоножка

ПОЛОСАТАЯ КОРКА –
яркая и контрастная,
твердая и блестящая

ПЯТНО НА БОКУ от
земли ярко-желтое
или оранжевое

БЕЗ НАДРЕЗОВ
И ТРЕЩИН


ТОЧКА ПРОДАЖИ

ОГРОЖЕНА
И НАХОДИТСЯ
ПОД НАВЕСОМ

АРБУЗЫ ХРАНЯТСЯ
НА СПЕЦИАЛЬНЫХ
СТЕЛЛАЖАХ

НЕОБОРУДОВАННЫЕ
ТОРГОВЫЕ МЕСТА
ВДОЛЬ ДОРОГ

АРБУЗЫ ЛЕЖАТ
НА ЗЕМЛЕ, РАЗРЕЗАНЫ
ДЛЯ ПРОБЫ



Vaqt o'g'risi...

Qolibni tovuqli kechki ovqat bilan siylaydigan mobil o'yin, kunlik kayfiyatni belgilab beruvchi "like"lar yoxud vaqt o'g'irlovchi "temir quti"lar haqida bugungi kun haqiqatlari. Bir insonni taniyman, ikki oydan ham ko'proq muddat ichida kurs ishi yozishga ko'p bor chog'landi, ammo "Negadir qo'lim tortmayapti" deb shu vaqtni ham o'tkazib yubordi. Vazifani topshirishga bir hafta muddat qolganda, oyog'i kuygan tovuqdek tipirchilab, ijtimoiy tarmoqdagi tayyor "dastyorlar" xizmatidan foydalanishga majbur bo'ldi.

Albatta, tekinga mushuk ham oftobga chiqmaydigan hozirgi zamonada bu yaxshigina to'lovni talab qilsa-da, ko'zni chirt yumishga to'g'ri keldi. Beg'am do'stimiz-ku, behuda o'tgan vaqt badalini to'ladi, ammo bu qachongacha davom etishi mumkin?

Eng qizig'i, yoshlar "qo'lim tortmayapti", deb o'ylab topayotgan bahonalar rang-barang. Xo'sh, kitobni-ku bir chetga qo'ya turaylik, gazeta-jurnal o'qishga, kurs ishi yozishga ham "tortmayotgan" qo'li ulami nimaga "tortmoqda"? Nari borsa shapaloqdek, yassi, to'rt-burchak shakldagi qora qutichalar... Mana bosh sababchi va muammo qayerda! Nafaqat yoshlarni, kattalarni ham tobora o'z domiga tortayotgan bu matohni quti emas "tubsiz jar"ga qiyos etsak, to'g'riroq bo'ladi, nazarimda.

Xo'sh, bu jar tubida nimalar bor? Mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar, o'yin va hokazolalar. Har kimning qiziqishi va ehtiyojiga qarab bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Masalan, 10-18 yosh oralig'idagi o'smirlarni olaylik. Telefon ekraniga "yopishib oladigan" toifa hisoblanadigan bu yoshlar qiziqish doirasi bugun nimalar bilan to'lib bormoqda? Shaxsiy kuzatishlarim mahsuli sifatida bugungi kunda eng ko'p o'ynalayotgan mobil o'yinlar beshtaligida birinchi o'rinda turuvchi "PubG"ni

o'smirlar telefonidagi eng ko'p foydalanilayotgan ilova sifatida keltirish mumkin. "Yilning eng yaxshi kompyuter o'yini", "Yilning eng yaxshi ko'p o'yinchili o'yini", "yilning eng trendda bo'lgan o'yini", "Eng yaxshi ekshn o'yin" kabi e'tiroflarga sazovor bo'layotgan bu o'yin besh yil ichida (2017-yil, dekabr) o'z atrofiga juda katta auditoriyani yig'a oldi.

Va bu endi xavotirli tus ola boshladi. Yaratuvi va muallif irlandiyalik Brvndan Gringa yiliga qariyb 1 million dollar foyda keltiruvchi o'yin o'yinchiga qanday foyda beradi? Ishonch bilan ayta olamizki, HECH QANDAY! Aslida bo'sh vaqtni zerikmasdan o'tkazish uchun yaratilgan ilova bu bilan cheklanib qolmay, butun bir kunni zabt etmoqda.

O'yinda g'irromlik qilganlarni 10 yillik taqib, g'oliblarni "Winner winner chikken dinner" degan so'z bilan siylovchi dasturga berilib, kitob o'qishga qo'li tegmayotgan avlodni biz istaymizmi-yo'qmi "kelajak" deb ataymiz, qaraymiz.

Bu qachongacha shunday davom etishi mumkin? Xulosa va yechimini o'zingizga havola etib, keyingi muammo sari yuzlanamiz.

...Navbatdagi bekotda to'xtagan metroga shoshilib chiqqan ikki nafar o'spirin qizlarning suhbat beixtiyor qulog'imga chalinib qoldi:

— Ha dugosh? Nega kayfiyating yo'q? O'qish, ishlaring

joyidami yo oilang bilan bog'liq biror muammoing bormi?

Chindan ham "qovog'idan qor yog'ayotgan" dugona shuni kutib turgandek hasratini boshladi.

— Nimasini aytasan, ertalab instagramimga yangi selfi rasmimni joylagandim. "Koment"lardagi bir-ikki negatív fikrlarni o'qib hali ham o'zimga kelolmayapman. Endi kun bo'yi yomon kayfiyatda yursam kerak, ertalabdan kayfiyatimni rasvo qilishdi...

Nahotki qaysidir bekorchi yozgan sharh (ijtimoiy tarmoq tili bilan aytganda "comment") kimnidir shu darajada xunob qila olsa. Bu haqda hatto o'ylab ham ko'rmagan ekanman.

Nahotki, insonlar uchun yaratilgan ijtimoiy tarmoqlar bugun ularni qul qilib, kayfiyatiga cha belgilab bermoqda. "like"lar qanchalik ko'p, "comment"lar qanchalik chiroyli bo'lsa, kayfiyat ham shunchalar ko'tarinki, agar aksincha bo'lsa...

Kulgili, ammo achinarli shu kabi holatlar yomg'irdan keyingi qo'ziqorindek ko'payib bormoqda. Sababi, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni ham yuqoridagi holatda qiyos etgulik vaziyatni keltirib chiqarmoqda.

Gazeta.uz saytining xabar berishicha, 2021-yilga kelib telegram messengeri foydalanuvchilari soni 500 millionga yaqinlashib qolgan bo'lsa, "Instagram" tarmog'ida bir kunda 500 milliondan ortiq odam faollik ko'rsatmoqda.

Kam ta'minlangan aholining aksariyat qismi o'zining yashash joyidan boshqa hududlarga borib ish izlaydi. Mamlakat poytaxti – Toshkentda esa juda ko'plab yollanma ishchilar o'z xizmatini taklif qiladigan joylar bor. Xalqimiz bunday joylarni sodda qilib – mardikor bozori, deb ataydi. Bu joylardagi ishchilarning ko'pchiligini, asosan, turli viloyatlardan kelganlar va afsuski, ularning talaba bo'lgan bolalari!

Nega talabalar mardikor bozori-dan ish izlaydi? Sababi juda oddiy: tugallanmagan oliy ma'lumot bilan mo'may daromadli ish topish muammo. Oqibatda yigit kishi bo'lib uydan pul so'rashga uyalgan talabalar mardikor bozoridan panoh izlaydi. Ammo bu holat qachongacha davom etadi? Nima uchun ishchi kuchi yetishmayotgan bir paytda ish qidirayotganlar buncha ko'p?

Bunda, albatta, mas'ullarning xatosi, ishini to'g'ri tashkil eta olmayotgani ham sabab. Qolaversa, uzoq yillar ta'lim berishda yo'l qo'yilgan xatolar va ularni hamon to'la bartaraf eta olmayotganimiz ham muammoning ko'payishiga sabab bo'lmqoda. Lekin mana shunday murakkab jarayonda o'zimiz ham biroz oldinga intilishimiz,

“Oliy ma'lumotli” mardikorlar bozori

YOXUD ZAMONAVIY KASBLARNI EGALLASH QANCHALIK MUHIM?

hayotimizni o'zgartirishga ommaviy ravshda harakat qilishimiz kerak.

Oliy ma'lumotli tanishlarimdan biri hamon ishsiz. Uning ishsizligida mamlakatdagi umumiy holat – ish o'rinalarning kamligi, tanish-bilishchilik kabi faktorlarning ham hissasi bor. Lekin bunda tanishimning o'qigan mutaxassisligi bo'yicha deyarli hech narsani bilmasligi asosiy sabablardan biri. Uning uquqsizligi esa yana o'sha ta'lim tizimi bilan bog'liq. Ammo hozir gap bu haqida emas. Ya'ni mana shu to'siqni yengib o'tishga harakat qilishimiz kerak.

Bugun mehnat bozorida kasblar ro'yxati juda tez yangilanib boryapdi. Ish beruvchi talabiga javob beradiganlar esa hamma joyda o'z ishini topadi. Ammo bizda tanishimning holatiga tushganlarning aksariyati yangi kasblarni egallashga va o'rganishga qiziqmaydi. Bu holat esa ularning malakasiz ishchilar safiga qo'shilishiga

sabab bo'ladi. Oqibatda "oliy ma'lumotli mardikorlar" jamiyati shakllanadi. Ularning ba'zilari faqat diplom uchun vaqtni o'tkazgan bo'lsa, ayrimlari talabalik yillarini ham mardikor bozorida o'tkazgan. Bunday vaziyatda qanday ish tutish kerak. Yagona chora o'z kasbiy mahoratini takomillashtirish yoki yangi kasb-hunarni o'rganishdir. O'zi ishsiz bo'lsa, u qanday qilib qo'shimcha xarajat qilib, vaqt sarflab yangi kasb-hunar o'rganadi, deyishga shoshmang. Chunki bugungi kunda kasb o'rganishning klassik usulidan tashqari, zamonaviy shakli, ya'ni onlayn ta'lim olish usuli ham ancha rivojlandi.

Oxirgi yillarda internetdagi ko'plab platformalarda o'zbek tilidagi segment anchagina rivojlandi. Mana shu joydan ham yangi ishlarni o'rganish va egallash mumkin. Bularga misol qilib tadbirkorlarga "MFactor", "Patronlar ligasi", IT yo'nalishini mustaqil

2020-yil Kun.uz saytining poytaxt aholisi orasida o'tkazgan so'rovnomasida shu ma'lum bo'ldiki, kun davomida internetdan 8, 9, 12 hatto 24 soat foydalanuvchilar ko'pchilikni tashkil etmoqda.

Internet orqali daromad topuvchilar uchun, albatta, bu tabiiy holat, ammo olinga teng vaqtini havoga, aniqrog'i internetga sarflayotganlar uchun bu achinarli.

Tasavvur qiling, kecha maktabni tamomlagan abituriyent vaqtini instagramdagi "koment"larni o'qish va javob yozishga sarflamoqda. Vaholanki, yaqinlashib kelayotgan imtihon kunida bu ish uchun afsuslanishi va boshqa osonroq yo'l bilan imtihonni a'lo topshirish yo'llarini izlashi turgan gap.

"Tik tok"ni larzaga solish niyatida yangi video tayyorlayotgan talaba ota-onasi to'xtatgan kontrakt pulini xuddi baland binoning tepasidan sochib yuborayotgandek taassurot qoldiradi.

Unga berilayotgan (balki qabul qilinmayotgan) bilim, kiritgan sarmoyani hozir dunyoning qaysidir burchagida turib orzu qilayotganlar yo'qligiga kim shubha qiladi? "Alisher Navoiy Usmon Nosir ijodiga yuksak baho bergan", deb hisoblovchi, kun kecha Tolyoq tumanidagi 59-maktabda "menga sening imtihoning kerak emas, imtihonsiz ham yashayveraman", deya o'qituvchisiga do'q uruvchi o'quvchilarning ko'payib qolganiga sabab balki guruh-guruh bo'lib o'ynaladigan "PubG"dir?

Ziyoda RAHIMBOYEVA,
O'zJOKU talabasi

o'rganuvchilar uchun "Sariq dev", "Video darslar" kabi kanallar o'z obunachilariga sohaga oid bilimlarni o'zbek tilida, sodda va oson yetqazib berishadi. Bunaqa misollarni esa shaxsning qiziqishiga ko'ra har bitta soha va kasb bo'yicha ham topish mumkin. Xullas, agar o'quv kurslariga borishga pul va vaqt kamlik qilsa, bemaol onlayn tarzda bepul o'rganish mumkin. Bunga esa faqat xohish va hafsa bo'lsa bas.

Zamonaviy dunyoda bitta kasbni yoki yo'nalishni puxta egallab yaxshi yashashni orzu qilish deyarli imkonsizdir. Bu hozirda eng talabgir va trendda bo'lgan IT yo'nalishiga ham taalluqli. Sababi, hattoki IT da ham bitta dasturlash tilini mukammal bilish yaxshi daromad topadi degani emas. Bu holat nafaqat bizda, balki butun dunyoda tendensiya shakliga allaqachon kirib qoldi. Ya'ni bitta shaxsning bir qancha kasblarni uddalay olishi va bajarishi uning muvaffaqiyati garovidir. Bunda sizga zamonaviy bilimlar anchagina asqotadi. Yaxshi daromad topish uchun qo'shimcha zamonaviy kasblarni egallash lozim bo'ladi. Bu esa "Oliy ma'lumotli mardikorlar"ning kamayishiga olib keladi. Bu masala yechimini topishi zarur. Jarayonni tezlashtirish esa siz-u bizga bog'liq.

Mashhura NASRIDINOVA

Orziqib kutilayotgan onlar

O'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasida umumta'lim maktablari alohida o'rin egallaydi. So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan xalq ta'limi tizimida chuqur islohotlar olib borilmoqdaki, bularning barchasi o'quv sifatini oshirishga, zarur shart-sharoitlarni yaratish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda qayta ta'mirdan chiqarilayotgan maktablarda olib borilayotgan jarayonlarga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz.

Bu uchun avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Davlat rahbari mazkur maqsadlarga erishish va keng ko'lami islohotlarni amalga oshirishda "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" degan mutlaqo yangi va zarur g'oyani o'rtaga tashlagan edi. Bu borada islohotlar davom etmoqda. Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani Tog'ay MFYda joylashgan, 1936-yilda qurilgan maktab binosi keyingi yillarda ancha

ta'mirtalab bo'lib qolgan edi. Binoning tashqi devorlari ma'nuray boshlagan, ayniqsa, o'quv xonalaridagi moddiy-texnik jihozlar talabga javob bermas, o'quvchilar tahsil olishi uchun sinf va fan xonalari, to'garak mashg'ulotlari, xodimlar faoliyat yuritishi uchun ma'muriy xonalar yetishmasdi. Shu sababli fizika, kimyo, ingliz tili fan xonalaridan sinf xonasi sifatida, ma'muriy xonalar yo'qligi sababli direktor xonasi uchun sinf xonasidan, kutubxona, o'qituvchilar xonasi uchun esa omborxonadan foydalanilar edi.

O'quvchilar ko'pligidan bir necha smenada dars olib borilar, bu esa shundoq ham eskirib ketgan jihozlar uchun qo'shimcha yuklama bo'lardi. Shart-sharoit ta'sirida bo'lsa kerak, o'quvchilarning ham bilim olishga qiziqishi susaygandi. Bunday sharoitda o'quvchilarni tartib-intizomga chaqirish, ularning o'qishga ishtiyogini oshirish ham oson bo'lmasligi tabiiy.

Bugungi kunga kelib



mazkur muammolar bartaraf etilish ostonasida turibdi. Ayni paytda O'zbekiston tumani Tog'ay MFYdagi 27-umumta'lim maktabida kapital ta'mirlash jarayonlari olib borilyapti. 360 o'quv o'ringa mo'ljallangan umumta'lim maktabini rekonstruksiya qilish ishlari jadal davom etyapti.

Yana bir quvonchli voqea. Yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida

12x24 o'lchamdagi sport zali qurilmoqda. Bu esa maktab o'quvchilarini bo'sh vaqtlarida sport bilan shug'ullanishlari uchun ayni muddao bo'lishi shubhasiz.

Davlat byudjeti hisobidan 3 milliard 669 million so'm miqdordagi mablag' ajratilgan. Maktabning zahmatkash ustozlari yangi o'quv yilida kapital ta'mirdan chiqarilgan, moddiy-texnik bazasi yangilangan bilim dargohida o'quvchilarni qabul qilishga shay.

Muxtasar aytganda, 27-umumta'lim maktabida bo'layotgan mazkur

o'zgarishlar yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish, ertangi kunimizning munosib davomchilarini kamolga yetkazishning mustahkam tashkiliy-huquqiy mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, dunyo taraqqiyoti shiddati barcha soha kabi ta'lim-tarbiya jarayoniga ham yangicha yondashuvni, innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilishni taqozo etyapti.


Ahror MAHMUDOVI,
O'zbekiston tumanidagi
27-umumta'lim maktabi
direktori

KAM TA'MINLANGAN OILALAR FARZANDLARINING BILIM OLISH IMKONIYATLARI KENGAYTIRILADI

Joriy yilning 16-avgust kuni Hukumatning "Kam ta'minlangan oilalar farzandlarining umumta'lim muassasalaridagi kuni uzaytirilgan guruhlarda o'qishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan tasdiqlangan nizomga ko'ra, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan deb topilgan oilalarga yordam beriladi.



Ya'ni ushbu oila farzandlarining umumta'lim muassasalaridagi kuni uzaytirilgan guruhlarda bolalar ta'minoti uchun ota-onalar to'lovi "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va "Saxovat va ko'mak" jamg'armalari tomonidan qoplab beriladi. Buning uchun har yili tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari 1-avgust-gacha maktablarda ta'lim olayotgan kam ta'minlangan oila farzandlarini aniqlaydi. Shundan so'ng, 5-avgust-gacha umumta'lim muassasalarining kuni uzaytirilgan guruhlarda o'qish istagida bo'lgan hamda to'lov to'lashdan ozod etilmagan kam ta'minlangan oilalar farzandlari ro'yxatini shakllantiradi. Ushbu ro'yxatlarni 10-avgust-



gacha tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi, Yoshlar ishlari agentligi bo'limi, "Mahalla" xayriya jamoat fondining bo'limi bilan kelishadi va xalq deputatlari tuman (shahar) kengashiga tasdiqlash uchun kiritadi.

Umumta'lim muassasasi kengash qarori kelib tushgan

kundan boshlab 3 kun ichida tegishli o'quvchilarning ota-onalari (yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslar) bilan bir o'quv yili uchun shartnoma tuzadi. Shunga ko'ra, to'lov har bir bolaga o'quv yili davomida bir oy uchun BHMning 25 foizigacha (61 250 so'mgacha) miqdorda qoplab beriladi.

Aziz NESIN



— Sos, sos! Nuqta, chiziqcha, chiziqcha, chiziqcha, nuqta, nuqta, nuqta, chiziqcha. Sos! Tat, taa... tat, tat, taa... tat... Sos! Chiziqcha, chiziqcha, nuqta, chiziqcha, nuqta. Sos!

Xabar Unqopani yuk tashish kemasidan kelardi. Eng yaqin sohildagi xabarchi Unqopani kemasiga javoban morze yozuvuda: — Nima bo'ldi?, — deya so'radi.

Juda qisqa javob xabari keldi:
— Orol dengizi, nol-nol uch daraja shimol, nol-nol bir soniyaga g'arbdamiz. Kemani shilliqqurtlar egallab oldi. Xavf juda yuqori. Sos! Sos!

Unqopani yuk tashish kemasidan so'nggi olingan xabar shu mazmunda edi. Sohildagi xabar oluvchi va safarda bo'lgan kemalarning xabarchilari bekordan-bekorga qancha xabar yozishdi, biroq Unqopanidan boshqa biron-bir xat-xabar olisholmadi.

Xabar bir nechta daqiqalar ichida Orol dengizidagi barcha kemalarga jo'natildi. Xabarchilar betinim ravishda bir-biriga xabar yuborishardi:

— Unqopani yuk tashish kemasini shilliqqurtlar egallab oldi.
— Shilliqqurtmi?
— Ha-ha, shilliqqurt.
— Qanaqa shilliqqurt?
— Men qayerdan bilay qanaqa shilliqqurtligini. Xabarchining xabari shunday tugagan. "Shilliqqurtlar kemani zabt etishdi" debdi, shundan keyin boshqa xabar ham kelmagan.
— Shilliqqurt, anglo'lmadim to'g'risi. Bu o'zimizning chig'anoq bo'lmasin tag'in.

— Chig'anoqmi? Chig'anoq hech zamonda kemani zabt etganmi, yo tovbva?

— Mayli, shunday bo'lsin ham deylik, nima bo'ldi ekan bu shilliqqurt degani? Xato tushinishgandir balki.

— Bilolmadim xullas... Birgina emas, barcha xabarchilar yordam xabarini olishibdi. Xabarchimizning o'n sakkiz yillik tajribasi bor. "Unqopa yuk tashish kemasi shilliqqurtlar qo'lga o'tdi" deya xabar berdi.

— Demak, seningcha bu shilliqqurtlar chig'anoq emas, shundaymi.

— Chig'anoq ham kemani egallay oladimi axir, qadrdonim?

— Bunisini bilmayman. Biz hozir qutqaruv kemasiga nima deb xabar beraylik unda?

— Biz nima olsak, o'shani sotamiz. Shilliqqurt, shilliqqurt...

— Unqopa kemasini shilliqqurtlar ishg'ol qildi...

— Ha, shunday...

— Bu tag'in qaroqchi-paroqchilar guruhi nomi bo'lmasin?

— Ochig'i bilmayman...

— "Shilliqqurt qaroqchilari".
— Xaritaga bir qaraylikchi.
— Sardiniya oroli bor, Soqiz bor masalan, deylik Sisam oroli...
— Sardiniyani shilliqqurt deb tushinishgandir ehtimol?
— Qaydan bilan... Balki, Sardiniya qaroqchilardir.

Unqopa yuk tashish kemasiga Istanbul sohiliidan besh tonna shilliqqurt ortilgandi. Shilliqqurtlar konteynerlari bilan kema omboriga qo'yilgan, bu yerdan to'g'ri Fransiyaga yo'l olishi kerak edi. Bundan tashqari boshqa yuklar bilan to'lgan yuk tashish kemasini yo'lga otlangandi...

Kema yo'lga tushganining ertasi kun oqshomi, kema kapitani palubadagi yotog'ida mizg'iyotgandi. Bir mahal yuzida qimirlayotgan yumshoq va ho'l nima bilandir uyg'ondi. Ko'zlarini chala ochgan holatda qo'lini yuziga shapillatib urdi. Yumshoqqina, suyuq nimagadir qo'li tegdi xullas...

egallab olgandi, kema poli, mashina, stol-stul-u soatgacha hatto...

Bu holat faqat shu yerda bo'lsa kerak deya hisoblagan shturvalchi kema tashqarisiga chiqar ekan, badtar hayron qoldi. Kema narvonlari, qutqaruv yostiqlari, ushlagichlar, hatto arqonlarigacha beburd shilliqqurtlar bilan qoplangandi. Kemedagilarni bir qo'rquv iskanjasi ishg'ol qildi.

Vahima avvaldanam bor, hozir esa u yana-da kattalashib borardi. Chunki hech kimsa bu kichik jonzo'tga qo'l tekkiza olmasdi.

Kapitanni qattiq vahima bosganidan hatto hojatxonaga berkinib olmoqchi bo'ldi. Biroq na hojatxona, na boshqa biron yer shilliqqurtlar istilosidan holi edi. Eng oxirida dod-voy solib kayutaga yugurib chiqqan ko'mirchi bo'ldi. Kema qozoni yonida ham shilliqqurtlarga begona bir yer qolmagandi. Kemani suv olsa, teshilsa, chambaragi sinsa ham vahima bu darajada bo'lmasdi ehtimol.

Kemani zabt etgan

shilliqqurtlar (HIKOYA)



Nimadirmas, nimalardir... Yotoq lampasini yoqdi. Yoz o'rtasida tarakanlar hujumiga uchragan karvonsaroy kabi vujudini, yotoqni, butun boshli kemani shilliqqurtlar egallab olgandi. Kapitan dod-voy solgancha palubadan tashqariga otilib chiqdi. Kema tashqarisida oyoq bosilgan joyda chatir-chutur shilliqqurtlarni majag'lab qo'yardi. Kayutada qanchadir qobig'idan ayrilgan, qanchadir qobig'ini yaltillatib yurgan shilliqqurtlar har tarafga sochilib yotardi. Kapitanning oh-vohini birinchi kema haydovchisi va navbatchi matros eshitdi. Ovoz kelgan tomonga ular birinchilardan bo'lib yugurib kelishdi. Yanayam to'g'riroq ayatidigan bo'lsak yugurib kelishga harakat qilishdi, biroq uddalay olishmadi, chunki oyoq qo'yadigan joyning o'zi yo'q edi. Kema haydovchisi ilk qadamniyoq bir shilliqqurt ustiga bosdi. Bosishi bilan oyoq oyoq to'yib, oldga qarab yiqildi. Ko'z ochmasidanoq qo'llari ostida yirik yong'oq kattaligida nimalardir qimirlayotganini sezdi. Ayni shu onda ikkinchi shturvalchi palubaga yugurib kirdi. Mashinani boshdan-oyoq shilliqqurtlar

Matroslar buta supurgilari bilan shilliqqurtlarni supurib dengizga otishlariga qaralay ular qaysidir yerdan qaynab chiqar, bo'sh yerlarni zumda to'ldirardi. Go'yoki, tinimsiz tug'illardi zang'arlar...

Biroz muddat o'tib esa kemachilar ustiga ham yurish boshlashdi. So'nggi chora yordam istamoq... Xabarchi vahimaga tushganlarning birinchisi edi.

Soatlar davomida xavotirga tushgan kapitan vanihoyat amr qildi:

— Tezroq bo'l, yordam xabari jo'nat!

Xabarchi shilliqqurtlar qoplab olgan apparatiga yaqinlashdi. Qo'lini tekizishga jirkangani uchun oyog'i bilan shilliqqurtlarni surib tushirdi, apparatni ishga tushirib, xabar yubordi:

— Sos! Sos! Kemani shilliqqurtlar egallab oldi.

Bu orada shilliqqurtlar uning oyoqlariga tirmashib, to'ppa-to'g'ri yuzi tomon harakatlana boshladi. Oh-voh qilganicha tashqariga yugurib ketdi. Qo'rqib ketganidan qaytib kelib javob kelganmi-yo'qmi bilishga, yana xabar uchun tugma bosishga ham madori qolmagandi.

ASLIYATDAN TARJIMA

Bu xabar tarqalib, tushunilib olinguncha Unqopa kemasi Marsilyaga yetib oldi. Kemani butkul shilliqqurtlardan tozalay olishmagan bo'lsa-da, har holda cho'kib ketmasdan manzilga yetib kelishdi. Kemani yaxshi bir kimyoviy dori, masalan zaharli tutun bilan tozalash kerak. Kapitan, kapitan yordamchisi, shturvalar, mashinist va yana bir nechta kemachi o'zlaridan jirkanishar, tezroq cho'milishni xohlashardi. Darhol, oyog'ini qo'lga olib hammasi bir mehmonxonaga joylashishdi. Nihoyat, poklanish mumkin, hamma joy shilliqlikka botgan. Hatto kiyimlarining cho'taklaridan ham shilliqqurtlar chiqardi. Mehmonxonada birinchi qilgan ishlari, albatta, dush qabul qilish bo'ldi. Ikki kun davomida kemada tuz totmagan kemachilar shoshila-shoshila mehmonxonaga oshxonasiga tushishdi. Kapitan ofitsiantga qarab

— Yo Xudoyim, tezroq bizga ovqat ber, — dedi.

— Nima istaysiz, misyo?

— Nima bo'lsayam farqi yo'q, faqat tezroq bo'lsin. Hozirgina uzoq safardan keldik. Eng yaxshi ovqatingiz nima bo'lsa, shuni keltiravering, bo'ling.

Bo'kkinicha ovqat yeyishdi. Shturvalchi yonidagilarga:

— Sho'rva ajoyib ekan, — dedi.

Mashinist ham qo'shib qo'ydi:

— Qovurdoq ham juda xushta'm.

Kapitan esa:

— Biribir bu dimlamaga teng keladigan yo'q, — deya so'zini yakunladi.

Shukr qilib, qorinlarini silay boshlashdi.

Bir kemachi o'zini ko'rsatmoq istab:

— Aniq bilaman, bu bir yoshgina buzoqning go'shti, — dedi.

— Yo'g'ee, undaymas.

— Aniq buzoq go'shti, qadrdonim.

Muzlatgichda saqlashadi, so'ngra sharob bilan yumshatishadi. Shunday yumshoq bo'ladi-ki-i.

— Qo'zi go'shti chamamda.

— Menimcha baliq go'shtiyov.

— Ofitsiant, bu yo'qqa qarab yuboring, ofitsiyant.

— Labbay, misyo?

— Bu qovurdoq nimaning go'shtidan?

— Yoqdimi sizga, misyo? O'tgan hafta Turkiyadan bir kema shilliqqurt kelgandi.

— Nima-a-a, shilliqqurt?

Hammasi shoshib qoldi.

— Dimlamayammi?

Ofitsiant mushtariylarini shodlantirgani uchun tabassum aylab:

— Ha, — dedi. — U ham shilliqqurt.

— Sho'rva-chi, sho'rva-yammi?

— Xo'jayinimiz shilliqqurt restoran ovqatlariga o'zgacha ta'm baxsh etadi, deya hisoblaydi. Shuning uchun pulidan qochmaydi. Qimmat bo'lsayam olaveramiz. To'g'ri topdingiz, bu ham shilliqqurt sho'rvasi.

— Yo Xudoyim, salat hech qursa shilliqqurtndanmasdir?

— Ta'm bilishingizga gap yo'q, albatta, misyo, shilliqqurt salati bu.

Insoniyat GLOBAL TAHDIDLAR qarshisida

So'nggi yillarda havo harorati muntazam ko'tarilib, joriy-yilda keskin iqlim o'zgarishlari tufayli insoniyatga ko'plab talafotlar yetmoqda. Global isish natijasida tabiiy ofatlarning sodir bo'lishi, qurg'oqchilik, flora va fauna dunyosining yo'qolib ketishi va turli xil kasalliklarning yuzaga kelishi ancha yillardan beri olimlarni o'ylantirayotgan va tashvishga solayotgan masalalardan biridir.

Yangiliklarda deyarli har kuni dunyoning qaysidir hududida o'rmon yong'inlari, dahshatli suv toshqinlari kuzatilayotgani haqidagi xabarlar ko'zimizni tashvishladi. Masalan, shu yil 28-iyul kuni Turkiyaning turistik zonalaridan biri – Antaliyada kuzatilgan yong'in kuchli shamol va issiq havo tufayli tezlik bilan yoyilgan va oz fursatlarda katta hududni egallagan. Ofat natijasida bir necha kishi hayotdan ko'z yumgan, yuzdan ziyodi esa jarohatlanib, kasalxonalariga yotqizilgan.

Bunday ofatlar va zararlanganlar soni esa yildan yilga oshib bormoqda. Barchaga ma'lumki, Amerika qit'asida o'rmon yong'inlari nisbatan ko'p sodir bo'ladi. Balki buning sababi sanoatning rivojlangani va ishlab chiqarish zavodlari ko'pligidir. Ofatlar oqibatida odamlar eng ko'p zarar ko'radi. O'z navbatida iqlim o'zgarishi, anomal issiqlik kuzatilishiga insonlar sababchidir.

XX asrda ishlab chiqarish sur'atlari sezilarli darajada o'sdi. Biroq tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida yangi yerlarning o'zlashtirilishi ekologik muhitning buzilishiga sabab bo'ldi. Sanoat zonlari, ishlab chiqarish zavod va

fabrikalardan chiquvchi zararli gazlar ekologiyaga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Bundan tashqari, fazoga uchirilayotgan raketa va kosmik kemalar ham azon qatlamining yemirilishi va oqibatda quyoshdan keluvchi ultrabinafsha nurlarining to'g'ridan to'g'ri, hech qanday to'siqsiz yerga yetib kelishi mazkur muammolarning sababidir.

Ekologiyaning buzilishi oqibatida olimlar "ekologik tanglik" deb atovchi muammoli vaziyat yuzaga kelmoqda. Olimlar ekologik tanglikni yuzaga keltiruvchi 2 ta asosiy omilni sanaydi. Birinchisi – Yer sayyorasining geologik qatlamlari tabiiy holdagi tadrijiy harakati natijasida. Ikkinchisi – antropogen omillar – insonlar faoliyati bilan bog'liq jarayon.

Ekologiyaga nisbatan shavqatsiz munosabatga tabiat ham munosib javob qaytaryotgandek, go'yo. Havo haroratining ko'tarilishi nafaqat tabiat, balki inson salomatligi uchun ham zarar yetkazadi. Tadqiqotlarga ko'ra issiq muhit tana hajmi bilan birgalikda miya hajmiga ham ta'sir o'tkazishi mumkin. Bundan tashqari, issiq iqlim boshqa kasalliklarni ham keltirib chiqarishi tasdiqlangan. Masalan, qon bosimining ko'tarilishi, bosh og'rig'i, gepatit kabi

kasalliklarning kelib chiqishida ob-havoning ta'siri katta.

Masalaning boshqa jiddiy jihati esa suv resurslari muvozanatining buzilishidir. Uzoq davom etuvchi issiq ob-havo qayerlardadir qurg'oqchilikka, qayerdadir ming yillik muzliklarning erishi va buning oqibatida suv toshqinlari kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Respublikamiz hududida iqlim monitoringi XX asr va XXI asr boshlarida ishning turg'un tamoyilini ko'rsatgan, isish ko'rsatkichi o'n yillik uchun 0,2C dan oshadi, bu shimoliy yarim shar bo'yicha ko'rsatkichdan 40 foizga ortiqdir. Keyingi yillarda iqlim o'zgarishi, havo haroratining ko'tarilishi natijasida Pomir va Tyanshan muzliklari shiddat bilan erib bormoqda. Sirdaryo va Amudaryoning asosiy suv manbai ushbu muzliklar ekanligini hisobga olsak, bu biz uchun falokatli holatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Qo'shni Tojikiston va Qirg'iziston tadqiqotchilarining so'zlariga qaraganda, ba'zi muzliklarning 20 foizi erib bitgan. Keyingi o'n yilliklar ichida muzliklarning yarmidan ko'p qismi erib ketishi mumkin. BMT Bosh Assambleyasi Barqaror rivojlanishning oltinchi maqsadiga bag'ishlangan onlayn yig'ilishida Tojikiston tomonidan mamlakatdagi muzliklarning erishi Markaziy Osiyo uchun xavf tug'dirishi haqida gapirib o'tgan edi. Keltirilgan ma'lumotga ko'ra, Markaziy Osiyo suv resurslarining 60 foizgacha bo'lgan qismini tashkil etuvchi

muzliklarning erishi kelajakda bu hudud uchun xavf tug'dirishi tabiiy.

Global issiqlik qaysidir hududlarda muzliklarning erishiga, boshqa joylarda tabiiy suv havzasining qurib ketishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Bunga misol o'tgan asrning 60-yillarida 68,9 ming kilometr kvadrat maydon, 1083 kilometr kubdan oshiq suv hajmiga ega bo'lgan, hozirgi kunga kelib kichik ko'lga aylanib qolgan Orol dengizidir. Havo haroratining yildan yilga oshib borishi natijasida suv hajmi 15 barobarga qisqargan, suv sathi 29 metrga pasaygan. Okeanlardagi bir litr sho'r suv tarkibida 18-24 gramm tuz mavjud, Orol suvi tarkibida esa 150-300 gramgacha tuz borligi aniqlangan. Dengizning qurigan tubida 6 million gektarga yaqin tuz maydonlari hosil bo'lgan. Bu maydon tobora kengayib bormoqda.

Bu yerdan har yili 100 million tonnaga yaqin chang va zaharli tuzlar atmosferaga ko'tariladi. Kuchli qum bo'ronlari va shamollar mazkur hududdan 400 metr uzoqlikkacha bo'lgan mintaqalarga ham yetib bormoqda va zarar keltirmoqda. Hudud aholisi quruq ob-havo sharoitida va qum bo'ronlari ta'sirida yashashga majbur.

Tadqiqotlar natijasida Orol dengizi fojiasiga havo haroratining ortishi sabab ekani ma'lum bo'ldi. Ilmiy kuzatishlar so'nggi yillarda hududda yoz faslining maksimal issiqlik darajasi +43C-+53C gacha oshganligi,

qishda esa -27C-32C gacha pasayganini ko'rsatmoqda. Harorat ko'tarilishi suvning bug'lanish koeffitsiyenti oshishiga, suv resurslarining kamayishi va suv tanqisligiga sabab bo'lmoqda. Mo'ynoq meteostansiyasidan olingan ma'lumotlarga qaraganda yog'ingarchilik miqdori yiliga 130 mm.dan 73 mm.gacha kamaygan.

Yuqoridagi haroratlarning o'zgarishi bu hududga xos bo'lmagan shamolning yillik o'rtacha tezligiga ta'sir etib, tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg'oqchilik xavfi ortmoqda. Ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, davriy qurg'oqchilik har uch yilda takrorlanmoqda. Salbiy ekologik o'zgarishlar Sirdaryo va Amudaryo suvlarining Orol dengiziga quyilishi surunkali kamayishiga olib kelmoqda.

O'z davrida Orolbo'yi mintaqasida o'simlik va hayvonot dunyosi naqadar boy va go'zal edi. Ammo dengiz qurishi oqibatida ularning turlari keskin kamayib bormoqda, sut emizuvchilarning 12, qushlarning 26 va o'simliklarning 11 turi "Qizil kitob"ga kiritilgan. Mamlakatlar, insonlar rivojlanish, sanoatlashish va texnikalashtirishdan ozroq chekinib, atrof-muhitga ham e'tibor va mablag' ajratishsa, keyingi yillarda kutilayotgan bundan-da dahshatli halokatlarni, yo'qotishlarni to'xtatish, hech bo'lmaganda, ortib ketishining oldini olish mumkin.

Lobar QODIROVA



Qo'shimcha ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasi Axborot va kommunikatsiyalar agentligi bilan aloqa.

